

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 147 (1746), 2026-yil 22-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



IQTISODIYOTNING BARCHA TARMOQLARI VA HUDUDLARDA YUQORI O‘SISH SUR‘ATLARINI TA‘MINLASH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 21-iyul kuni hudud va tarmoqlarda o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yil boshidan mamlakatimiz iqtisodiyoti 8,5 foizga o‘tdi. Sanoatda 8 foiz, xizmatlarda 16,9 foiz, qurilishda 13,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,7 foiz o‘shish ta‘minlandi. Investitsiyalar hajmi 28 milliard dollarga, eksport 14,4 milliard dollarga yetdi. “Fitch” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog‘ona yaxshiladi.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari 40 millionli aholi hayotini yaxshilash uchun 9-10 foizli iqtisodiy o‘shish zarurligini ta‘kidladi. Buning uchun hudud va tarmoq rahbarlari mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solishi, har bir loyiha va har bir korxona bo‘yicha aniq natijaga ishlashi kerakligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Yig‘ilishda hudud va tarmoq rahbarlarining olti oylik rejalari ijrosi tanqidiy tahlil qilindi. Ayrim hududlarda yalpi hududiy mahsulot, qurilish, investitsiya, sanoat va eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha xaziralar to‘liq safarbar etilmagani qayd etildi. Oylik, choraklik va yillik rejalarni bajarmagan rahbarlarga nisbatan mas‘uliyat kuchaytirilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari har bir vazir va hokimning ishi odamlarning yashash madaniyatida sezilmasa, tadbirkorlarning og‘irini yengil qilmasa, har qanday natija faqat “qog‘ozdagi raqam” bo‘lib qolishini ta‘kidladi. Shu bois, joylarda infratuzilma, bandlik, tadbirkorlik va aholi daromadini oshirish bo‘yicha ishlar mutlaqo yangi yondashuv asosida tashkil etiladi.

Yig‘ilishda “mahalla yetilligi” faoliyatini yangicha tashkil etish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bu borada “Dolzarb 40 kunlik” e‘lon qilinib, 2 mingta eng og‘ir mahallada ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish boshlandi. Hokimlar ushbu mahallalarda elektr, gaz, yo‘l va suv masalarini o‘z vaqtida hal qilishga shaxsan javobgar bo‘ladi.

Bandlik tizimi ehtiyojmand aholini o‘qitish, ishga joylashtirish va daromadini oshirish bo‘yicha hududma-hudud ishlaydi. Banklar va mahalla uyushmalari faoliyati ham qayta ko‘rib chiqilib, keyingi uch oy ular uchun amaliy attestatsiya davri bo‘lishi belgilandi. Mahallalarda obodlik, ozodalik va yashash madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ham aniq vazifalar qo‘yildi.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va biznes muhitini yaxshilash masalalari ham muhokama qilindi. Hozir 51 ta vazirlik va idorada 322 ta yo‘nalishda moliyaviy jarima qo‘llash vakolati borligi, 2024-2026-yillarda qariyb 3 trillion so‘mlik jarima qo‘llanilgani qayd etildi. Prezidentimiz nazorat qiluvchi idoralar tadbirkorga avval imkoniyat berishi va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishni o‘rganishi kerakligini ta‘kidladi.

Tashqi bozorlarda raqobat kuchayib borayotgan bir paytda eksportchilar uchun to‘lov, yig‘im va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Barcha vazirlik va idoralarga tizimidagi byurokratiya, jarima, to‘lov va yig‘imlarni qisqartirish, biznes muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritish topshirildi.

Sanoat va eksport ko‘rsatkichlari ham tanqidiy ko‘rib chiqildi. Ayrim tuman va shaharlarda sanoat o‘shishi sur‘ati pasaygani, eksport bo‘yicha kutilgan o‘zgarish bo‘lmagani qayd etildi. Bosh vazirga natija ko‘rsatmagan hokimlar faoliyatini ko‘rib chiqish, to‘qqiz oy yakuniga qadar o‘zgarish bo‘lmasa, mas‘ul rahbarlarga nisbatan qat‘iy chora ko‘rish topshirildi.

Strategik korxonalar xarajatlari tahlilida ayrim yirik korxonalarda mahsulot tannarxi oshgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, energetika tarmoqlarida yo‘qotishlar yuqoriligi, elektr energiyasi va gaz taqsimotida samaradorlikni oshirish zarurligi ta‘kidlandi. Yirik kompaniyalarning bozor qiymatini

oshirish, IPO jarayonlariga tayyorlash va tashqi investorlar uchun jozibadorligini kuchaytirish vazifasi qo‘yildi.

Soliq tushumlari yil boshidan 27 foizga ko‘payib, 130 trillion so‘mdan oshgan bo‘lsa-da, qo‘shimcha tushum bo‘yicha yillik reja yetarli darajada bajarilmayotgani tanqid qilindi.

Ishlab chiqarishni tiklash va xususiyashtirish bo‘yicha ham muhim vazifalar belgilandi. Hozir ayrim to‘qimachilik korxonalari ishlaymay turgani oqibatida 5 trillion so‘mlik mahsulot va 400 million dollarlik eksport imkoniyati boy berilayotgani aytiladi. Yil boshidan 57 ta tarmoq va 76 ta hududiy korxona ishlab chiqarishni 11 trillion so‘mga kamaytirgani ham tanqid qilindi.

Mutasaddilarga ishlaymay turgan korxonalarni birma-bir tahlil qilib, ular faoliyatini tiklash topshirildi. Shuningdek, yangi xususiyashtirish dasturi doirasida 100 trillion so‘mlik ko‘chmas mulk, yer maydonlari va davlat ulushlarini savdoga chiqarish, davlat aktivlarini olgan tadbirkorlar uchun to‘lov shartlarini yengillashirish belgilandi.

So‘nggi uch yilda 11 milliard dollarlik 509 ta eksportbop quvvat ishga tushirilgan bo‘lsa-da, ularning 208 tasi hali eksportga chiqmagan. Agar ushbu korxonalar mahsulotining kamida 30-40 foizi tashqi bozorlarga yo‘naltirilsa, qo‘shimcha 1,5-2 milliard dollar valyuta tushumi ta‘minlanishi mumkin.

47 ta maxsus iqtisodiy zonaning 29 tasida yil boshidan buyon umuman eksport bo‘lmagani ham tanqid qilindi. Mutasaddilarga “tezkor brigadalar” tashkil etib, eksportga chiqmagan korxonalar va maxsus iqtisodiy zonalarda sertifikat, aylanma mablag‘, bozor va logistika bilan bog‘liq masalalarni tekzor hal qilish topshirildi.

Davomi 2-betda



Buyuk o‘zbek yo‘li

Bugun bilan o‘tgan atigi o‘n yil orasida yer bilan osmoncha farq bor. Yurtimiz taraqqiyotida, jamiyatimizda, el-yurt tafakkurida bo‘lgan va davom etayotgan shiddatli o‘zgarishlar haqida katta mamnunlik va faxr bilan so‘z yuritmasdan iloj yo‘q. Zero, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida ham xalq, Vatan yuksak va muqaddas qadriyat deb talqin etiladi. Mutafakkir nazdida chin inson uchun el-yurtga xizmat qilmoq insoniylik, sadoqat va burchning yuksak timsoli sanaladi.

MUHTASHAM YANGI DAVR Vatanparvarlik va elparvarlikning SADOQAT SAHIFALARI

Shu ma‘noda, yillar va yo‘llarni bosib o‘tishdagi qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar uyg‘unlashgan sahifalar barchamizga daxldor. Ularda el-yurt ravnaqi, farovonligi, oilalar, kelajagimiz bo‘lgan farzandlar kamoli, har bir qarich yeri muqaddas bo‘lgan yurt manzarasi mujassam. Ularga esa katta yo‘l kichik, muhim yoki ikkinchi darajali deb qarab bo‘lmaydi. Vatanga sadoqat sahifalarining istalgan joyidan so‘z yuritish mumkin.

Kechagina ko‘chalarimiz o‘ydim-chuqur, hamma narsada byurokratik to‘siqlar, oliy o‘quv yurtlariga kirishdagi tizimli korruptsiya, naqd pul muammosi kundalik hayotimizning ajralmas qismi edi. Mamlakatda kambag‘allik borligi haqida gapirmaslik, muammolan qochish oddiy holga aylanandi. Bugun shu haqda gapirsangiz, yoshlar ajablanadi, xuddi

uzoq o‘tmishdan so‘zlayotgandek, ertak eshitgandek bo‘ladi. Chunki ular quyidagi qiyinchiliklarsiz ulg‘aymoqda.

Naqd pul va valyuta charxpalagi. Odamlar o‘z oyligi va pensiyasini olish uchun bankomatlar qarshisida kunlab navbatda turgani, bozorlarda “qora bozor” va rasmiy kurs o‘rtasidagi tafovut tufayli yuzaga kelgan sarsongarchiliklar tarixga ko‘mildi.

Imtihonlardagi “tanish-bilishchilik”. Oliy ta‘limga kirishdagi korruptsiya zanjirlari uzildi. Jarayonlar to‘liq raqamlashtirilib, inson omili minimallashtirildi.

Muammolarni yashirish siyosati. Ilgari aytish “tabu” hisoblangan kambag‘allik mavzusi ochiq tan olindi va unga qarshi mahallabay tizim orqali kurashish boshlandi.

Xalq ichiga ko‘chgan hokimiyat

“Kabinet kodeksi”ning parchalanishi faqat Prezident darajasida qolmadi. Bu tizim barcha bo‘g‘indagi amaldorlarni xalq ichiga kirishga, odamlarning dardini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga majbur qildi. Virtual va Xalq qabulxonalarining tashkil etilishi davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak degan tamoyilni real hayotga ko‘chirdi.

Ilgari vazir yoki hokimning qabuliga kirish yillab vaqt olgan bo‘lsa, bugun rahbarlarning o‘zi mahallalarda, chekka qishloqlarda sayyor qabullar o‘tkazmoqda. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch aynan mana shu masofaning yo‘qolishi hisobiga qayta tiklandi.

Davomi 3-betda

Sharh

INVESTORLAR UCHUN

HUQUQIY KAFOLAT

TOSHKENT XALQARO MOLIIYA MARKAZI NEGA KONSTITUTSIYAVIY ASOS BILAN YARATILDI?



“Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun mahalliy va xalqaro moliya doiralari, iqtisodchi-ekspertlar hamda potensial investorlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Qiziqishning asl sababi yangi moliya markazi tashkil etilayotgani emas, O‘zbekistonda xalqaro kapital uchun huquqiy kafolat ilk bor oddiy qonundan yuqori yuridik kuchga ega hujjat darajasida mustahkamlanganida. Mazkur hujjat mamlakat investitsiya siyosatida huquqiy barqarorlik va institutsional ishonch ustuvor ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

Davomi 4-betda

Dolzarb mavzu

ILMIY KIMYO

sanoatni rivojlantirishning o‘ziga xos modeli

Joriy yil 2-iyun kuni Prezidentimiz raisligida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sohani milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish masalasi ustuvor bo‘ldi.

Bugunning gapi

SUV – STRATEGIK BOYLIK

Sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi

Biz har kuni beminnat iste‘mol qiladigan obihayot har bir xonadonga yetib kelguniga qadar minglab kilometr uzunlikdagi quvurlar, muhandislik inshootlari va murakkab tozalash jarayonlaridan o‘tadi. Asosiy vazifa ichimlik suv ta‘minoti darajasini oshirish emas, aksincha, ushbu bebaho ne‘matni iste‘molchiga barqaror, xavfsiz va sifatli yetkazib berishdan iborat.

Bugun suvga shunchaki resurs emas, strategik boylik sifatida qaralmoqda. Zero, suv tanqisligi insoniyat yaqin kelajakda duch kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy muammolardan biri.

Ekspertlar fikricha, global iqlim o‘zgarishlari suv manbalariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatayapti. Shu bois, har bir tomchi suvdan samarali foydalanishga qaratilgan tizimni yaratish zarur va bu zamon talabi.

Davomi 2-betda

IQTISODIYOTNING BARCHA TARMOQLARI VA HUDUDLARDA YUQORI O‘SISH SUR‘ATLARINI TA’MINLASH BO‘YICHA USTUVOR VAZIFALAR BELGILANDI

Boshlanishi 1-betda

Milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham vazifalar belgilandi. So‘nggi ikki yilda bu yo‘nalishda 15,5 milliard so‘mlik moliyaviy yordam ko‘rsatilgan. Lekin o‘z brendini ro‘yxatdan o‘tkazgan mahalliy korxonalarning uchdan biri hali eksportga chiqmagan. Shu bois, mahalliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqish va ularni dumping hamda kontrafakt mahsulotlardan himoya qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

 **Tashqi savdo yuklarining 70 foizi temir yo‘l orqali tashilishi, biroq bu yo‘nalishda tadbirkorlardan e‘tirozlar ko‘pligi qayd etildi. Yuk vagonlarining yetishmasligi, ayrim temir yo‘l liniyalarida yuklama yuqoriligi sababli logistikada qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Mutasaddilarga qo‘shimcha vagonlarni jalb qilish, temir yo‘l infratuzilmasi uchun Jahon bankidan 200 million dollar mablag‘ jalb etish bo‘yicha kelishuvga erishish topshirildi.**

Oliy darajadagi tashriflar doirasida erishilgan kelishuvlar ijrosi ham ko‘rib chiqildi. So‘nggi yillarda 52 ta tashrif davomida 213 milliard dollarlik 1 ming 617 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Endi ushbu “yo‘l xaritalari” ijrosi Hisob palatasi va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qat‘iy nazorat qilinadi.

Bosh vazirga har hafta tarmoq rahbarlari, hokimlar va elchilar bilan birga loyihalar ijrosini davlatlar kesimida muhokama qilish topshirildi. Prezident Administratsiyasi oldiga iqtisodiy diplomatiya, investitsiya va eksport bo‘yicha diplomatik vakolatxonalar faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, o‘z vazifasini bajara olmayotgan rahbarlar o‘rniga yosh va zamonaviy fikrlaydigan kadrlarni tavsiya etish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda inflyatsiyani jilovlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalari ham muhokama qilindi. Viloyat hokimlari yanvar-iyun oylarida inflyatsiyani 3 foizdan oshirmaslikni maqsad

qilgan bo‘lsa-da, aksariyat hududlarda bu vazifa bajarilmagani qayd etildi. Go‘sht narxi oshgani munosabati bilan import go‘shni samolyotda tashish xarajatlarini qoplash uchun 300 milliard so‘m ajratilgani aytiladi.

Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari chorvachilikdagi haqiqiy holatni ko‘rsatib bergani ta‘kidlandi. Chorvachilik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha mablag‘lar yo‘naltiriladi, yil yakunigacha chetdan 100 ming bosh qoramol va 150 ming bosh qo‘y-echki olib kelish vazifasi qo‘yildi.

 **Meva-sabzavot va kartoshka zaxirasini shakllantirish, sovitkichli omborlar qurish va oziq-ovqat jamg‘armalarini to‘ldirish bo‘yicha ham aniq choralar belgilandi. Yil yakunigacha 87 ming tonna quvvatga ega 340 ta sovitkichli omborni ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.**

Davlatimiz rahbari global iqtisodiyotdagi noaniqliklar qancha davom etishini hech kim oldindan ayta olmasligini qayd etdi. Asosiy hamkor davlatlarda iqtisodiy faollik sekinlashayotgani mahalliy korxonalarimizga, ayniqsa, eksportchilarga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli barcha rahbarlar har qanday xatarni hisobga olgan holda o‘z zaxiralarini safarbar qilishga tayyor bo‘lishi shartligi ta‘kidlandi. Tarmoq va hududlarga biriktirilgan “aql markazlari” bilan birga 15-avgustgacha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Ushbu takliflar “resurs — infratuzilma — loyiha — ishlab chiqarish — byudjetga tushum — eksport” zanjirini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. 2027-yil uchun makroiqtisodiy parametrlar, byudjet, investitsiya va eksport dasturlari yangicha yondashuv — “safarbarlik ssenariysi” asosida tayyorlanadi.

Yig‘ilishda vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlarning hisobotlari, belgilangan topshiriqlar ijrosini joylarda tashkil etish bo‘yicha rejalari tinglandi.

Norasmiy bandlikni kamaytirishda jazolash emas, balki

rag‘batlantirish mexanizmi tanlandi. Natijada vaqtincha qiyinchilikka uchragan korxonalar faoliyati qayta tiklandi.



Taraqqiyot odimlari

NUKUS VA NUKUSLIKLAR Muammodan yechimgacha bo‘lgan masofa

Nukus shahrida kechayotgan o‘zgarishlar inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan tizimli islohotlarning amaliy ifodasidir. Mahallalarni ijtimoiy sog‘lomlashtirishning bosh formulasi zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu borada shaharda sezilarli qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Jayhun mahallasida 1,5 kilometr, Ipak yo‘li mahallasida 2 kilometr va Yangi zamon mahallasida 1,9 kilometr ichki yo‘lga asfalt yotqizildi. Shuningdek, Yangi zamon mahallasi hududiga 3,1 kilometr masofadan toza ichimlik suv tarmog‘ini tortish qizg‘in pallada.



Bugun aholi bandligini ta‘minlashda “Loyiha — maqsadli yondashuv” tizimi ishga tushirilgan. To‘rtta mahallaning o‘zida yuzlab fuqaro mikroloyihalar orqali ishga joylashtirildi. Shuningdek, Jayhun mahallasida faoliyat boshlash arafasida turgan “Eko tekstil” loyihasi orqali 35 xotin-qizni doimiy ish o‘rni bilan ta‘minlash mo‘ljallangan.

“Mahalla yetilligi” va ijtimoiy xodimlarning manzilli yordami natijasida Jayhun mahallasida kambag‘al oilalar soni 292 tadan 190 taga, Yangi zamonda esa 96 tadan 50 taga kamaydi. Davlat ta‘minotidagi xonadonlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va suv filtri yetkazib berildi.

Og‘ir toifadagi yoshlarning rahbarlarga biriktirilishi ham samara beriyapti. Jayhun mahallasida otaliqqa olingan issiz 14 yig‘it-qizning 11 nafari qisqa muddatda kasb-hunarga o‘qitildi, doimiy ishga joylashtirildi va tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kredit ajratildi. “Yoshlar daftrani” orqali talabalarning o‘quv-shartnoma puli to‘langani hamda zarur uskunalar olib berilgani ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Norasmiy bandlikni kamaytirishda jazolash emas, balki rag‘batlantirish mexanizmi tanlandi. Natijada vaqtincha

qiyinchilikka uchragan korxonalar faoliyati qayta tiklandi. Birgina Ipak yo‘li va Nuri bo‘ston mahallalarining o‘zida o‘nlab tadbirkorlik subyektlarida mehnat qilyotgan ishchilar faoliyati qonuniylashtirilib, ular uchun kafolatlari pensiya va ijtimoiy himoya tizimi yaratilgan. Aslida, Nukus shahridagi keng ko‘lamli ishlar islohotlarning bosh mezonini bo‘lgan “Inson qadri uchun” tamoyili joylarda real hayotiy kuchga ega bo‘layotganini ko‘rsatadi.

— Mahallamiz “Obod qishloq” dasturiga kiritilgach, hududimizda ilgari bajarilmagan ko‘p ishlar qilindi. Jumladan, 28 ta ko‘chaga yoritqichlar o‘rnatildi, hududdagi 4-shifoxona filiali qurildi. Shuningdek, gaz quvurlari tortildi, yangi elektr ustunlari va transformatorlar o‘rnatildi. 5,5 kilometr masofaga piyodalar yo‘lagi yotqizildi. Bularning barchasi xalqimizning kundalik hayotda qiyalmay yashashi uchun qilinayotgan islohotlar samarasi, — deydi “Navro‘z” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Altin gul Janibekova. — Infratuzilma yaxshilansa, odamlarning kayfiyati ham ko‘tariladi, hayotga munosabati o‘zgaradi va davlatga naf keltirish bosh maqsadga aylanadi. Ilgari hududimizda maktab yo‘q, bolalar bog‘chasi esa avariya holatida bo‘lgani uchun yopilgandi. “Tashhabbusli

byudjet” loyihasi yo‘lga qo‘yilgach, ushbu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanishga bel bog‘ladik. Birlashib, qirq yildan buyon hududimiz ekologiyasiga, aholi salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelayotgan 2200 metr uzunlikdagi kanal atrofini obodonlashtirish, uni yashil hududga aylantirish bo‘yicha 1 milliard so‘mlik loyihani yutib oldik.

Har bir qadam maslahat bilan tashlansa...

Poytaxtda sinovdan o‘tgan “aqli tuman” boshqaruv tajribasi Nukus shahriga ham kirib keldi. Bu yangilanish mahallalar hayotini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Joriy yil 25-aprel kuni Nukus shahri hokimi A. Daniyarov “Jas avlad” mahallasida bo‘lib, aholi bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. O‘shanda hududdagi suv, elektr energiyasi va yo‘l muammosini hal qilish rejasini aholi bilan birga muhokama qilindi.

Xalq bilan kelishilgan rejalarni qog‘ozda qolib ketmadi. Tez orada mahalladagi muammolarni hal etish chorasi ko‘rildi. Natijada joriy yil 25-maydan boshlab mazkur mahalla hududida katta qurilish va ta‘mirlash ishlari boshlandi. Ayni kunlarda mahalladoshlar ko‘z o‘ngida ko‘p qavatli uylarning tomi va devori ta‘mirlanib, zamonaviy ko‘rinishga keltirilmoqda. Eskirgan tarmoqlar yangilanib, raqamli boshqaruv tizimini o‘rnatish uchun zamin hozirlanayapti. Mahalladagi piyodalar yo‘laklari va bolalar maydonchalarini sozlash ishlari ham davom etyapti.

Nukus shahrining yo‘l infratuzilmasini yanada yaxshilash va transport harakati xavfsizligini ta‘minlash maqsadida “Mustaqillik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Mustaqillik ko‘chasi bo‘ylab, shuningdek, Xalqlar do‘stligi va Chimboy choyxona mahallalari ko‘chalarida yirik ta‘mirlash ishlari bajarilmoqda. Ularni 24/7 rejimida faoliyat yuritadigan ko‘chaga aylantirish rejalashtirilgan. Bu jarayonda avtomobil yo‘llari kengaytirilib, eni 15 metrga yetadi. Shuningdek, yo‘lining ikki tomoniga beton ariq va tungi yoritish jihozlari o‘rnatiladi, piyodalar uchun qulay yo‘lak yotqiziladi.

Qanot yozgan intilish

Hayotda o‘z yo‘lini topish, halol mehnat bilan oila tebratish har bir insonning ulug‘ maqsadlaridan. Nukus shahrining Nao‘pir mahallasida yashovchi Nesiylbeli Yerjanovning faoliyati va unga ko‘rsatilgan amaliy yordam fikrimizning yaqqol isboti. Nesiylbeli opa sharoit yo‘qligidan shikoyat qilib o‘tirmay, o‘z xonadonida jo‘ja ko‘paytirib, daromad topishni maqsad qildi. Biroq zamonaviy inkubatori yo‘q

edi. Bunday vaziyatda to‘xtab qolmadi, muammoga yechim izlab Nukus shahar hokimligiga murojaat qildi. Bu shunchaki ko‘mak so‘rash emas, balki “men mehnat qilmoqchiman, sharoit yaratishga imkon bering” degan samimiy intilish edi. Murojaati javobsiz qolmadi. Shahar hokimligi va saxovatpesha homiylar ko‘magi bilan Nesiylbeli opa xonadoniga orzusidagi inkubator yetkazib berildi. Saxovatli qo‘llar tufayli mehnatsevar ayolning xonadonida nafaqat yangi uskuna paydo bo‘ldi, balki uning orzulari ham yangidan qanot yozdi.

Ko‘ngillarni yaqinlashtirayotgan ezgu amallar

Aholining katta-kichik rahbarlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilishi ham bundan 10 yil oldin imkonsiz tuyulgan bo‘lsa, Prezidentimizning davlat siyosatida tub bulirish yashasi, uzoqni ko‘zlagan strategiyasi bosqichma-bosqich samara bermqada.

Taraqqiyotning iqtisodiy modelida davlatning asosiy vazifasi biznes bilan shug‘ullanib pul topishda emas, balki tadbirkorlarning erkin faoliyat yuritishiga sharoit yaratib berishdan iborat. O‘tgan besh yilda birgina Qoraqalpog‘istonda ishsiz fuqarolarga, xotin-qizlarga va yoshlarga subsidiya hamda imtiyozli kredit asosida turli zarur jihoz, asbob-uskunalar olib berildi.

Yurtimizdagi tadbirkorlar ham Yevropada o‘qib kelmagan. Hammasi asta-sekin rivojlangan. Buning uchun o‘z ishiga ixlos va tashabbus kerak. Misol uchun, nukuslik “Mira opa” oshxonasi asoschisi Mira Shegay. To‘ng‘ich qo‘nis mahallasida yashovchi Orazgul Asanova biznesini pirokji sotishdan boshlagan. Shodli ovuldagi Jumabike Kuskokova hozir 70 yoshdan osha ham issiqxonada ishlab, daromad topib keladi. Ko‘ngilda ishga ishtiyoq bo‘lsa, barchasini yo‘lga qo‘yish mumkin ekan.

Har bir inson hayotini o‘zgartirishi uchun birinchi navbatda harakat qilib, oilasiga baxtni o‘zi olib kiradi. Baxt ham, boylik ham bir kunda kelib qolmaydi. Bunga inson halol mehnati, o‘zidagi bunyodkorlik shijoati bilan erishadi.

Shahrimiz rivoji katta minbarlarda emas, balki har bir xonadondagi xotirjamlikda, hamshaharlarning yuzidagi tabassum va samimiy mehr-og‘ibatdan namoyon bo‘lmoqda. Bunday hayotdan rozilik hissi bir tan, bir jon bo‘lib harakat qilyotgan nukusliklarning kundalik hayotida ham o‘z aksini topmoqda.

Elmira SAGALATDINOVA, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Yaqin yillargacha mamlakatimizda ham mazkur sohada yechimini kutayotgan masalalar talaygina edi. Eski tarmoqlar, ichimlik suv ta‘minotidagi uzilishlar, past quvvatdagi tozalash inshootlari hamda markazlashgan kanalizatsiya tizimi qamrovi yetarli darajada emasligi hududlar rivoji va aholining turmush sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan.

Ichimlik suv ta‘minoti infratuzilmasi yillar davomida yavar, ta‘mirtalab ahvolga kelib qolgan edi. Ko‘plab hududlarda suv tarmoqlari o‘nlab yillar yangilanmagan, ayrim aholi punktlarida esa markazlashgan ichimlik suv tizimi umuman mavjud emasdi. Hatto tarmoq mavjud hududlarda ham ichimlik suv kuniga bor-yo‘g‘i bir-ikkisi soat berilgan.

Bu esa aholining suvdan to‘laqonli foydalanishi u yqoda tursin, eng oddiy kundalik ehtiyojlarini qondirishga ham imkon bermasdi. Natijada fuqarolar suv keladigan fursatni poylab, turli idishlarga zaxiralab olishga, ichimlik suvni uzoq masofalardan tashib kelish yoki sanitariya talablariga javob bermaydigan manbalardan foydalanishga majbur bo‘lardi.

Eng achinarlisi, mavjud muammolarni bartaraf etish o‘rniga ularni statistik hisobotlar orqali yashirishlar ham kuzatilgan. Ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi sun‘iy ravishda oshirib ko‘rsatilib, amaldagi vaziyat bilan hisobotlar o‘rtasida katta tafovut yuzaga kelgan edi.

Masalan, 2016-yilgacha Qashqadaryo viloyatida ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi rasmiy hujjatlarda 20-30 foiz etib qayd qilingan bo‘lsa, amalda 11 foizga yetmagan. Boshqa viloyatlarda ham vaziyat shunday bo‘lgan. Bu esa sohadagi muammolar nafaqat chuqur, balki uzoq yillar davomida tizimli ravishda yashirib kelinganini yaqqol ko‘rsatadi.

Bugungi kunda sohada vaziyat tubdan o‘zgarib, keng ko‘lamli modernizatsiya izchil davom etmoqda. Yangi suv tarmoqlari tortilib, mavjudlari rekonstruksiya qilinayapti. Zamonaviy suv tozalash inshootlari va nasos stansiyalari ishga tushirilyapti. Yirik investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etilmoqda. Natijada aholining sifatli ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi yil sayin ortib bormoqda.

SUV – STRATEGIK BOYLIK

Sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi

Bu boradagi sa‘y-harakatlar O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2025-2028-yillarga mo‘ljallangan dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

Dastur asosida sohaga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish evaziga irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, eskirgan uskunalarni almashtirish, suv ta‘minoti darajasi past maydonlarni qisqartirish kabi ishlar izchil bajarilyapti.

So‘nggi yillarda sohaga jalb qilingan investitsiya hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi. Natijada aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 2017-yildagi 63 foizdan qariyb 83 foizga ko‘tarildi. Shu davrda 7,7 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlandi, 11 million aholining suv ta‘minoti yaxshilandi, yana 1,1 million kishi kanalizatsiya tizimiga ulandi. 39 ming kilometr ichimlik suv va 3,2 ming kilometr oqova suv tarmog‘i qurilib, rekonstruksiya qilindi.

Qashqadaryo viloyati misolida oladigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda hududga ichimlik suv tizimini modernizatsiyalash va markazlashuv qamrovini kengaytirish maqsadida uch trillion so‘m yo‘naltirildi.

Davlatimiz rahbari ushbu yo‘nalishdagi muhim obyektlarga tashrifi chog‘ida qurilish va bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishib, yangi majmualarni foydalanishga topshirish



Bugunning gapi



“So‘nggi yillarda sohaga jalb qilingan investitsiya hajmi 10 karra oshib, 2,7 milliard dollarga yetdi. Natijada aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 2017-yildagi 63 foizdan qariyb 83 foizga ko‘tarildi. Shu davrda 7,7 million aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlandi, 11 million aholining suv ta‘minoti yaxshilandi, yana 1,1 million kishi kanalizatsiya tizimiga ulandi.

marosimlarida bevosita ishtirok etmoqda. Taqdimotlar va videoselektor yig‘ilishlarida esa

amaldagi ishlar chuqur tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilab olinmoqda.



Maqsd JONIXONOV, jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Yaqin o'tmishning bu soylari bugungi avlod uchun chindan ham afsonadek tuyuladi. Ammo bu "ertak"ning ortida katta siyosiy iroda, tizimli islohotlar va eski fikrlash qoliqlariga qarshi kurash yotibdi. Masofalarning yo'qolishi esa yangi O'zbekistonning eng katta yutug'i va taraqqiyot kafolati bo'lib qoladi.

Prezidentimiz haqida gapirganda, odatda qurilayotgan zavodlar, yangilanayotgan shaharlar, yalpi ichki mahsulot raqamlari yoki xalqaro shartnomalarni sanaymiz. Ammo bular — natija. Bu natijalarning ortida qanday ruhiyat, qanday ichki iztirob va hech kim kutmagan qanday falsafa yotibdi? Shavkat Mirziyoyevni chinakam xalqchil va kuchli liderga aylantirgan, ko'pincha rasmiy xronikalar, kadrdan tashqarida qoladigan o'sha asl e'tiroflar nimalardan iborat? Uning birinchi va eng katta jasorati — davlat bilan oddiy odam o'rtasidagi devorni yo'q qilish bo'ldi. Buni shunchaki "xalq bilan uchrashuvlar" deb atash adolatdan emas. Bu — yuksak ijtimoiy empatiya. Mirziyoyev — siyosat maydoniga yuragini olib kirgan yetakchi. Uning viloyatlarga tashrifini kuzatib: protokollarni, qo'riqchilar qurshovini, oldindan tayyorlangan ssenariylarni buzib, odamlar orasiga kirib ketadi. Xalq qabulxonalari, mahallabay ishlash tizimi va rahbarlarning xalq ichiga kirishi — mana shu yangi davrning Bosh qomusiga aylandi. O'tgan 10 yillik tarix isbotladiki, eng to'g'ri qarorlar vazirlik binolarida emas, balki oddiy odamlarning dardini tinglash asnosida, mahallaning chang ko'chalarida tug'iladi.

Ilgari viloyat hokimini faqat oynai jahonda ko'radigan chekka qishloq odamlari bugun o'z mahallasida vazir bilan choy ustida muammosini hal qilaypti. Bu — tizim o'zgarganining eng oddiy isboti.

“Uyqusiz davlat”ning harakatlantiruvchi kuchi

Siyosiy kuzatuvchilar va Prezidentimiz bilan yelkama-yelka ishlaydigan insonlar bir faktini yaxshi biladi: Shavkat Mirziyoyevning ish grafigi inson imkoniyatlari chegarasidan tashqarida. U juda kam uxlaydi, tinimsiz harakat qiladi va eng muhimi, atrofidagilardan ham xuddi shu shiddatni talab qiladi.

Prezidentimiz nega burchalik shiddat bilan ishlaydi? Bu savolni hech birimiz chuqur o'ylab ko'rmaymiz.

Javob esa oddiy va og'riqli: boy berilgan vaqtni qaytarmoqchi. Shavkat Mirziyoyev

O'zbekistonning global dunyodan, zamonaviy texnologiyalardan, iqtisodiy rivojlanishdan necha yillar orqada qolib ketganini hammadan ko'ra chuqurroq his qiladi. U mamlakatning asrlarga tatigulik vaqtni boy berganini biladi. Shu bois, u O'zbekistonni o'sha boy berilgan yillar o'rmini to'ldirish uchun yugurishga, hatto uchishga majburlayapti.

Bu yerda geosiyosiy va tarixiy mas'uliyat yotibdi. Prezidentimizning ichki iztirobi "biz ulgurishimiz kerak, xalqimiz ertaga yoki kelajakda emas, shu bugundan yaxshi yashashi kerak" degan qat'iy maqsadga bog'langan. Shavkat Mirziyoyev vaqtning qadrini million baravar yuqori qo'ygan, soat millari bilan musobaqalashayotgan zamon kashshofidir.

Ko'pchilik rahbarlar tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun o'zgarishlardan qochadi. Chunki islohot — xavfli jarayon, u tizimning muvozanatini buzishi, noroziliklar keltirib chiqarishi mumkin. Ammo Shavkat Mirziyoyev eng komfort va tinch yo'lni emas, eng og'ir va mashaqqatli yo'lni — tub islohotlar yo'lini tanladi.

Mamlakatning pul ayirboshlash (konvertatsiya) tizimini ochish, majburiy mehnatga barham berish, paxta qulligini tugatish, chegaralarni ochish — bular shunchaki qarorlar emas, balki yirik siyosiy tavakkalchiliklar edi. Natijada o'quvchi sinfga, o'qituvchi darsiga, shifokor xonasiga qaytdi. Inson qadri shu emasmi?!

Shavkat Mirziyoyev hokimiyatga kelganidan so'ng amalga oshirgan eng buyuk mo'jizalaridan biri tashqi siyosat, xususan, Markaziy Osiyodagi muhitni butunlay o'zgartirgani bo'ldi. Bugun dunyo siyosatshunoslari Markaziy Osiyoning yangi qiyofasi haqida gapirganda, "Mirziyoyev doktrinasini" atamasini qo'llayotir.

"Biz qo'shnilarimiz bilan til topisha olmasak, uzoqdagi davlatlar bizni hech qachon hurmat qilmaydi", degan oddiy, ammo genial haqiqatni o'rtaga tashladi. U Tojikiston, Qirg'iziston,



kelajagini asrab qolgan "Mintaqaviy me'mor" sifatida tarixga kirdi. U qo'shnichilikni siyosiy majburiyatdan muqaddas qadriyat darajasiga ko'tardi.

Iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga, lekin Shavkat Mirziyoyevning qalbidagi eng katta og'riq va maqsad millatning ma'naviy, ilmiy va tarixiy xotirasini tiklashdir. U atigi bir necha yil ichida O'zbekistonni jahon islom ma'rifati va ilm-fan markaziga aylantirgani oldi.

Islom sivilizatsiyasi markazining qurilishi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlarining tashkil etilishi bu — shunchaki binolar emas. Bu — dunyoga sof



islom ma'rifatini ko'rsatish, yoshlarni diniy ekstremizm va jaholat botqog'idan asrashning yagona yo'lidir.

Prezidentimiz, ta'bir joiz bo'lsa, millatning kodini yangiladi. U Uchinchi Renessans g'oyasini o'rtaga tashlaganda, ko'pchilik buni balandparvoz shior deb qabul qilgan bo'lishi mumkin. Ammo bugun yangi intellektual avlod — Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan, ijod maktablarida tarbiyalanayotgan yoshlar intellekti dunyoni lol qoldirmoqda. Mirziyoyev

O'zbekistonning kelajagini yer osti boyliklarida emas, inson kapitalida, yoshlarning ongida ko'ra oldi. U jaholatga qarshi urush e'lon qildi va bu urushda ma'rifat quroli bilan g'olib bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbarining ijodiga ahliga, ziyolilarga e'tibori va mehri bo'lakcha. U kishi Erkin Vohidov va Abdulla Oripov kabi millat kuychilarini yod etib: "Ulug'larimiz tirikligida ularga yetarli sharoit yaratib berolmaganimizdan katta armonim bor", deya kuyinib gapirishi zamirida ham ulkan mas'uliyat yotadi. Bugun san'at, adabiyot va madaniyat namoyandalari davlatning chinakam ardog'ida yashamoqda. Bir umr xalqqa sidqidildan xizmat qilib, biror marta rasmiy mukofot olmagan xonanda Rustam G'oyipovning shaxsan Prezidentimiz tashabbusi bilan to'g'ridan to'g'ri "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti" unvoni bilan taqdirlanishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Xalqimiz bu yangilikni chin dildan, katta quvonch bilan qarshi oldi. Bu ijodkor qadrlining tiklanishi, yo'qotilgan armonlarning o'rmini to'ldirish yo'lidagi tarixiy va adolati qadamlardan bir kichkina misol, xolos.

Bunday ma'naviy o'zgarishlarni chuqur his qilish uchun uzoqqa borish shart emas, ularni har birimiz o'z hayotimizda, yon-atrofimizda ko'rib turibmiz. Masalan, men Zangiota tumanida yashayman. Har kuni shu tabarruk nom bilan bog'liq ziyoratgoh yonidan o'taman. To'tir fasl, o'n ikki oy davomida bu yerdan ziyoratchilar qadami uzilmaydi. Bugun ko'rkam, sokin va xushhavo bo'lgan bu maskan ilgari ham bor edi. Ammo u vaqlar ancha ko'rimsiz, pastqam va e'tibordan chetda bo'lgan.

Majmuaning bugungidek gavjum va obod ziyoratgohga aylanishiga bevosita Shavkat Mirziyoyev sababchi. Bundan roppa-rosa o'n yil muqaddam boshlangan bu xayrli tashabbusni mahalliy aholi hanuzgacha cheksiz minnatdorlik va faxr bilan esga oladi. Bu oddiygina misol — mamlakatdagi katta o'zgarishlarning jonli aks.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev haqidagi eng oliy va barchamiz anglab yetishimiz kerak bo'lgan e'tirof shundaki: u nafaqat O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy qiyofasini o'zgartirdi, balki o'zbek xalqining ruhiyatini,

o'zligiga bo'lgan ishonchini uyg'otdi. Yillar davomida shakllangan qo'rquv, shubha va umidsizlik tuyg'ularini sindirib, o'rniiga g'urur, jasorat va kelajakka qat'iy ishonchini singirdi. U buyuk davlat arbobi, lekin birinchi navbatda o'z xalqini cheksiz muhabbat bilan sevadigan, uning har bir zafaridan quvonib, har bir tashvishidan kuyadigan oddiy va samimiy inson. Mahallada oddiy odamlar bilan choy ichib o'tirgan, dalada dehqonning qo'lini siqib rahmat aytayotgan, dunyo minbarlarida turib millat manfaatini sherdek himoya qilayotgan Shavkat Mirziyoyev — bugungi va ertangi O'zbekistonning eng katta yutug'i va baxti.

Keling, haqiqatni tik turib tan olaylik: yaqin-yaqin gacha jamiyatimizda, odamlarning ongu shuurida sovuq va karaxt bir qo'rquv bor edi. Odamlar fikrlashdan, haqiqatni aytishdan, davlat idoralarga yaqinlashishdan, hatto o'z haq-huquqlarini talab qilishdan qo'rqardi. Davlat jazolovchi, nazorat qiluvchi va masofa saqlovchi mahobatli bir mashina sifatida ko'rilgan. Bu qo'rquv millatning ijodkorlik, yaratuvchanlik va erkinlik tuyg'ularini bo'g'ib qo'ygandi.

Prezidentimiz davlat boshqaruviga kelgan ilk kunlardananoq "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan talabni o'rtaga tashladi. Bu shunchaki chiroyli jumla emas, balki qo'rquv ustidan o'qilgan hukm edi. Xalq qabulxonalarining ochilishi, virtual murojaatlar tizimi, ommaviy axborot vositalari va blogerlarga berilgan erkinlik odamlarning tilini va dilini ochdi.

Eng muhimi, jamiyatda qo'rquv o'rmini mehri va ishonch egalladi. Oddiy odamlar davlat rahbari shaxsida o'zlarini doim eshitadigan, tushnadigan va himoya qiladigan suyanchigini ko'rdi. Bugun odamlar Prezidentimizga qo'rquv bilan emas, mehri bilan intiladi. Uning qo'lini siqishga, dardini aytishga, u bilan suratga tushishga oshiqadi. Mana shu ruhiy iqlimning o'zgarishi tizimli yoki iqtisodiy islohotlardan ming baravar kuchliroq bo'lgan ma'naviy inqilobdir. Shavkat Mirziyoyev o'zbek xalqiga o'z Vatani qo'rqumay, erkin va aziz bo'lib yashash baxтини qaytardi.

Uning oddiyligi sun'iy imij yoki siyosiy

texnologiya mahsuloti emas. Bu uning qonida, tabiatida bor bo'lgan samimiyatidir. U hech qachon o'zini xalqdan baland qo'ymadi, aksincha, "Men sizlarning xizmatchingizman, men sizlarning baxtingiz uchun mas'ulman", deb takrorlashdan charchamaydi. Bu yuksak kamtarlik va oddiylik millionlab insonlarning yuragini zabt etdi. Odamlar unda uzoqdagi siyosatchini emas, o'z oilasining boshchisini, o'z otasini ko'ra boshladi.

Shavkat Mirziyoyev islohotlarda, eng avvalo, yosh avlodga tayanmoqda. Ne ajabki, ilgari ham kreslosini saqlab qolish uchun o'sha davr tizimini ko'r-ko'rona maqtatib kelgan ayrim shaxslar bugun ham o'sha eski, karaxt qarashlari bilan yangi davrga baho berishga urinmoqda. Biroq Prezidentimiz bu ichki konservatizm va eski tizim qoldiqlariga qarshi qat'iy va murosasiz strategiyani qo'llayapti. Bu strategiyaning bosh omili davlat boshqaruv tizimiga xorijda bilim olgan, zamonaviy fikrlaydigan yosh yigit-qizlarning olib kirilishi bo'ldi. Eski maktab vakillarining maddohligi emas, balki yoshlarning shiddati va kreativ fikrlashi yangi davrning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Kundalik muammolar bilan ovora bo'lib, kelajakni unutish — ko'p rahbarlarga xos nuqson. Ammo Shavkat Mirziyoyevning eng katta kuchi uzoqni ko'ra bilish (strategik) salohiyatidadir. U faqat bugungi kunning tinchligi yoki ertangi kunning iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan yashamaydi. O'zbekistonning ellik, yuz yildan keyingi qiyofasini, dunyo xaritasidagi o'rmini ko'ra oladi va qarorlarini shunga qarab qabul qiladi.

Bu uzoqni ko'ra bilish qobiliyati quyidagi yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Inson kapitali va Uchinchi Renessans. Yer osti boyliklari va tabiiy resurslar qachondir tugaydi, ammo ilm va intellekt tugamaydi. Shavkat Mirziyoyevning Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan, ijod maktablarini tashkil etishi, oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirishi bu — kelajakka tikilgan eng katta investitsiya. Ya'ni davlatimiz rahbari O'zbekistonning istiqbolini intellektual avlod qo'liga topshirmoqda.

Yashil energiya va ekologiya. Dunyo global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi yoqasida turgan bir paytda, Shavkat Mirziyoyev mamlakatni yashil energiyaga o'tkazish, Orolbo'y'i hududini ko'kalamzorlashtirish ("Yashil makon" umummilliy loyihasi) ishlarini boshlab berdi. Bu kelajak avlodlar bizdan rozi bo'lishi uchun tashlangan strategik qadamdir.

Markaziy Osiyo birligi. Qo'shni davlatlar bilan yoqib bo'lgan chegaralarni ochish va mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish faqatgina bugungi savdo-sotiq uchun emas, balki kelgusida butun mintaqaning global kuchlar qarshisida yaxlit va baquvvat geosiyosiy markaz sifatida turishi uchun qilingan uzoqni ko'zlagan yurish edi.

Ortada qolgan o'n yillik tarix — shunchaki vaqt oqimi emas, balki millatning o'zligiga qaytarilishi, davlat va xalq o'rtasidagi ishonch ko'priklarining tiklanishi davri. Kabinetlar devorining qulashidan boshlangan bu yo'l Zangiota majmuisi misolidagi yuzlab tabarruk maskanlarning obodligida, ijod ahlining tiklangan qadr-qimmatida va eng muhimi, kelajakni o'z qo'liga olayotgan jasur yoshlarning shiddatida aks etmoqda. O'tgan o'n yil isbotladiki, eng buyuk o'zgarishlar balandparvoz nutqlarda emas, balki oddiy odamlarning roziligi va baxtida namoyon bo'ladi. Zero, xalq rozi bo'lgan yurtning ertasi hamisha ulug'vor va muhtashamdir.



Islohotlar samarasi

Qoraqalpog'istonda tug'ilib, Nukus davlat pedagogika institutining chet tillar fakultetida tahsil olganman. Mana shu ikki jihat – tug'ilgan vatanim va til o'rganganim men uchun eng yaxshi ne'mat bo'ldi. Zero, samimiy, qalbi buloq suvi kabi tiniq xalq farzandlari ekanimdan faxrlanaman. Ikki tillilik boshqa ellarni ham bilish, dunyoni tanishga imkon beradi. Hozir faoliyatim davomida bunga bot-bot amin bo'lyapman.



Dildfuza JIYANBEKOVA, "Massage Nukus service" korxonasi direktori

mazkur yo'nalishda biznes yurita olishimga ishonchim ortib bordi. Tag'in o'yladim: "Sohani bilsam, uning past-balandini o'rgangan bo'lsam, nega birovning qo'lida ishlashim kerak? Sayyohlarni qabul qiladigan beshtagina xonasi bo'lsa ham o'zim uchun mehmonxona ochaman!"

G'oyamni onamga aytam: "Juda yaxshi, lekin bizda sarmoya yo'q-ku?" deganidan keyin xorijlik do'stimning maslahatini eslatdim.

Onamning uyi muzeyga yaqin edi. "Oyi, uyingizni bering, ishonin! Mehmonxona qurib, shu biznes sabab hammamizga uy-joy ham bo'ladi, boshqa ehtiyojlarimizni ham qoplayman", deganman. Onam ishonadi. Shu tariqa sakkiz xonali, 16 kishini qabul qila oladigan kichkina mehmonxona bilan ish boshladik. O'shanda qarindoshlarim bor pullarini berib, mehmonxonamga sarmoya kiritdi.

Shunga qaramay, bu pullar imoratni ko'tarishga zo'rg'a yetdi. Mehmonxona ichini to'liq jihozlash uchun bankdan kredit olishdan boshqa yo'l yo'q edi. O'shanda 2014-yil, hozirgiday imkoniyat, sharoit qayerda deysiz. Yarimtayyor biznes uchun kredit olishga sakkiz oy vaqtim ketgan. Hujjatlar, kafolat — hammasi joyida bo'lsa-da, 8 oy davomida har kuni bankka qatnaganman. Hatto bank binosi oldida kechki soat 9-10 gacha o'tirgan kunlarim bo'lgan. Ha, o'sha paytlarda ishonchsizlik, tushkunlik oyog'imizga tushuv solardi. Hozir bu gaplar ertakdagi eshitiladi. Chunki vaziyat tubdan o'zgardi. Yangilanishlar sabab tadbirkor uchun eng yaxshi sarmoya mamlakatdagi imkoniyatlar va ishonch muhiti ekanini angladim.

Bugun tadbirkorlarga hamma imkoniyatlar, imtiyozlar yaratib berilgan. Vazifamiz — faqat ushbu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib,



tadbirkorlikni rivojlantirish. Sodda qilib aytganda, xohish, istak va harakat bo'lsa bas. O'zimizdan misol, 2017-yilda 8 xonali mehmonxonamiz torlik qila boshladi. Mehmonxonaning uchinchi qavatini ko'tardim. Shu tariqa qirq besh o'rinni mehmonxona egasi bo'ldik.

Qarang, turizm rivoji uchun hatto o'zimiz yashayotgan xonadonni mehmon uyiga aylantirishning huquqiy asosi yaratib berildi. Hatto bu borada ham imkoniyat va imtiyozlar taqdim etildi. Hozir tadbirkorlarimiz muayyan darajaga yetgach, to'xtab qolmaydi. Sababi bugungi imkoniyatlar to'xtashga yo'l qo'ymaydi!

Sohaga oid qaror, farmonlar, yul orqali taqdim etilayotgan imtiyozlar bizni oldinga itilishga undaydi. Ilgari qurbimiz yetmagani uchun orzu qilishga ham ikkilandigan ishlarga bosh qo'shaymiz. Masalan, jahon standartlariga javob beradigan katta mehmonxona qurishni maqsad qildik.

Buning uchun 2025-yili loyiha ishlab chiqib, 3,5 milliard so'm kredit oldik. O'zumdagidek 80 o'rinni mehmonxona qurishga erishdim. Kelayotgan sayyohlar, barcha mehmonlarimiz xizmatimizdan mamnun bo'lyapti.

Biz Turizm qo'mitasi orqali xorijdagi yarmarkalarda qatnashib, yurtimizdagi sayyohlik imkoniyatlarini targ'ib etib kel-yapmiz. Orol dengizi, uning qurigan tubidagi hayot sayyohlarni jalb etadi. Ustyurt platosidagi kanyonlar hech bir mamlakatda yo'q. Ularni tomosha qilish insonga estetik zavq beradi. Buning barchasi yurtimizda katta sayyohlik salohiyati borligidan dalolat. Uzoq yillar davomida biz shunday imkoniyatdan to'la foydalana olmadik. Keyingi yillarda esa soha tubdan o'zgardi. Hozir men boshlagan tadbirkorlik ishi orqali 30 dan ortiq yurtdoshimiz ishl bo'ldi. Qo'shimcha ravishda turizm agentligi ochdik. Unda sayyohlarni mamlakatimizga chorlash bilan birga yurtdoshlarimizning xorijga sayohatini yuqori sifatda tashkil etish xizmatlari ham bor.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimiz rivojiga hissa qo'shishni maqsad qilganmiz. Mazkur yo'lda hech bir qiyinchilikka duch kelmaymiz. Zero, mamlakatimizda itilgan inson uchun keng imkoniyat va imtiyozlar eshigi hamisha ochiq!



Kelgusi yillar Toshkent xalqaro moliya markazi uchun hal qiluvchi bosqich bo'ladi. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, har qanday moliya markazining dastlabki uch-besh yilida sud amaliyoti shakllanadi, regulyatorga ishonch mustahkamlanadi va ilk yirik xalqaro bitimlar amalga oshiriladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

INVESTORLAR UCHUN HUQUQIY KAFOLAT

TOSHKENT XALQARO MOLIYA MARKAZI NEGA KONSTITUTSIYAVIY ASOS BILAN YARATILDI?

Sherzod QURBONOV,
iqtisodiy tahlilchi

Boshlanishi 1-betda

Global raqobat endi tabiiy resurs yoki arzon ishchi kuchiga emas, barqaror huquqiy muhit, samarali boshqaruv va ishonchli institutga tobora ko'proq bog'liq bo'lmoqda. Xususan, xalqaro kapital qonun ustuvorligi ta'minlangan, xususiy mulk himoyalangan, sud tizimi mustaqil va davlat majburiyatiga ishonch yuqori bo'lgan davlatni tanlaydi. Shu sababli zamonaviy moliya markazi xizmat ko'rsatiladigan maxsus hudud doirasidan chiqib, mamlakat huquqiy tizimi va boshqaruv sifatini namoyon etuvchi institutsional maydonga aylanmoqda.

Qabul qilingan konstitutsiyaviy qonunga so'nggi to'qqiz yildagi iqtisodiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida qarash mumkin. Iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy mulk himoyasini kuchaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar hujjatda yaxlit huquqiy asosga ega bo'ldi — ochiq iqtisodiyot siyosati va qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lidagi islohotlar shu tariqa yangi institutsional bosqichga ko'tarildi.

Jahon tajribasi investorlar uchun huquqiy barqarorlik soliq imtiyozidan ham muhimroq omil ekanini ko'rsatadi. Soliq siyosati va iqtisodiy sharoit vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, ammo davlat zimmasiga olgan majburiyatning ishonchli himoya qilinishi investitsiya muhitining uzoq muddatli jozibadorligini belgilaydi.

Shunday ekan, Toshkent xalqaro moliya markazining konstitutsiyaviy qonun asosida tashkil etilishi oddiy huquqiy-texnik masala emas — u O'zbekistonning xalqaro kapital uchun ishonchli huquqiy makon yaratish va jahon iqtisodiyotiga chuqurroq integratsiyalashishga qaratilgan uzoq muddatli institutsional strategik tanlovdir.

Asosiy bosh maqsad

Konstitutsiyaviy qonun yuridik maqomi jihatidan oddiy qonundan farqlanadi va davlat huquqiy tizimida yuqori pog'onani egallaydi. Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risidagi mazkur hujjatning bosh maqsadi markazni tashkil etish hamda uning faoliyati uchun xalqaro moliya bozorlari talabiga mos alohida huquqiy-institutsional muhit yaratish bilan birga O'zbekistonda investitsiyalarni jalb qilishning mutlaqo yangi institutsional modelini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamdir.

Qonunning uchinchi moddasida markazning maqsad va vazifasi aniq huquqiy mazmunda ifodalangan: u xalqaro moliyaviy xizmat sektori rivojiga munosib hissa qo'shishi, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va diversifikatsiyalashgan o'sishini qo'llab-quvvatlashi hamda xalqaro maydonda raqobatbardosh yetakchi moliya markaziga aylanishi lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur qonunda sakkizta ustuvor vazifa belgilangan.

Mamlakat taraqqiy etar ekan, aholi xavfsizligi hamisha ustuvor ahamiyatga ega. Zero, har qanday jamiyatning o'sishi, rivojlanishi, avvalo, fuqarolarning xavfsizligi, davlatga ishonchi bilan baholalanadi. Shu maqsadda yurtimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishga eng ustuvor masalalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhimi, bugun jinoyatning oqibatlariga qarshi kurashish emas, balki ularning oldini olish ustuvor. Bu kabi muhim vazifaning asosiy yuki har kuni mahallalarda, odamlar orasida yurib, profilaktika ishlari bilan shug'ullanayotgan nozirlar zimmasiga tushadi.

Prezidentimiz shu yil 29-iyun kuni profilaktika inspektorlari va jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirish, sohada kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Uzoq yillarga mo'ljallangan strategik institut

Tabiatan konstitutsiyaviy qonunlar oddiyliklaridan yuridik kuchi, tartibga solish predmeti va qabul qilish tartibi bilan farqlanadi. Oddiy qonun muayyan ijtimoiy munosabatlarni



tartibga solsa, konstitutsiyaviy qonun davlat va jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega

Javob xalqaro kapitalning tabiatida. Gap shundaki, yirik investitsiya fondlari, transmilliy

masalalarning huquqiy poydevorini quradi. Shu bois, bunday hujjatda har bir normaning Konstitutsiyaga muvofiqligi, boshqa qonunlar bilan uyg'unligi va amalda qanday ishlashi chuqur sinovdan o'tkaziladi. "Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun ham xuddi shunday ko'p bosqichli parlament sinovidan o'tdi. Bu shoshilinch siyosiy qaror emas, huquqiy tahlil, ekspertlik baholari va raqobatlashgan yondashuvlar orasidan takomillashib chiqqan institutsional yechimdir.

Mazkur qonunning mohiyati aslida nomida emas, huquqiy maqomida yashiringan. Savol shundan tug'iladi: nega davlat bu munosabatlarni oddiy qonun bilan emas, aynan konstitutsiyaviy qonun orqali mustahkamlashni ma'qul ko'rdi?

“

Iqtisodiy adabiyotda bu yondashuvning o'z nomi bor — "ishonchli majburiyat" (credible commitment) nazariyasi. Uning mohiyati oddiy: imtiyoz va'da qilish kifoya emas, investor ertaga ham shu qoida amal qilishiga ishonch hosil qilishi kerak.

esa shuncha kechikadi. Shu bois, Toshkent xalqaro moliya markazi qisqa muddatli loyiha emas, uzoq yillarga mo'ljallangan strategik institut sifatida shakllantirilmoqda. Konstitutsiyaviy qonunni tanlash markaz qoidalarini eng yuqori yuridik kuchga mixlash demakdir. Bu yondashuv xalqaro kapitalga aniq huquqiy chegara chizib beradi va mamlakat siyosatining izchilligiga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy adabiyotda bu yondashuvning o'z nomi bor — "ishonchli majburiyat" (credible commitment) nazariyasi. Uning mohiyati oddiy: imtiyoz va'da qilish kifoya emas, investor ertaga ham shu qoida amal qilishiga ishonch hosil qilishi kerak. Barqaror qoidada esa kapital arzonlashadi, sarmoya tezlashadi, risklardan himoyalinish ishonchi kuchayadi.

Toshkent xalqaro moliya markaziga berilgan kafolatlarning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi xalqaro investorlarga O'zbekiston bugungi foyda emas, ertangi majburiyatga sodiqlik ustidan hamkorlik ko'prigi qurishga intilayotganini yaqqol ko'rsatadi.

korporatsiyalar va xalqaro banklar mablag'ni qayerga yo'naltirishni hal qilayotganda bozor hajmi yoki kutilayotgan daromaddan ko'ra ko'pincha huquqiy riskni chuqurroq o'lchaydi. Zero, investitsiyaning uzoq muddatli taqdiri o'sha davlatning o'z so'zida tura olish-olmasligiga bog'liq.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini soliq imtiyoz yoki arzon mehnat kuchi emas, qonun ustuvorligi, mulk daxlsizligi va davlat institutlarining ishonchiligi belgilashini ko'rsatadi. Investor hisob-kitobida daromad imkoniyati hamisha tavakkal bilan tortib ko'rildi, huquqiy risk qancha yuqori bo'lsa, loyiha qiymati shuncha oshadi, sarmoya qarori

Qonun amalda nimani belgilaydi?

Har qanday huquqiy hujjatning qiymati unda yozilgan maqsadda emas, u qanday institut yaratishi va iqtisodiy munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi bilan o'lchanadi. "Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun ham aynan shu mezon bilan baholanmoqda.

Yuzaga keladigan investitsiya va tijorat nizolari Toshkent xalqaro tijorat sudida birinchi va apellyatsiya instansiyalarida ko'rib chiqiladi. Mustaqil sud instituti investor uchun ortiqcha tafsilot emas, tayanch nuqtasi hisoblanadi. Nizo xolis, tezkor va prognoz qilinadigan tarzda hal etilsa, investitsiya riski pasayadi, shartnomaga ishonch kuchayadi, kapital jalb qilish xarajati qisqaradi. Amalda sud himoyasining ishonchiligi ko'pincha soliq yoki ma'muriy imtiyozdan uzoqroq va chuqurroq ta'sir ko'rsatadi.

Markaz ishtirokchilari uchun xorijiy valyutada va ruxsat etilgan raqamli aktivlar orqali hisob-kitob, chet ellik mutaxassisni mehnat ruxsatnomasiz jalb etish, besh yilgacha viza, kapital va dividendni erkin repatriatsiya qilish kabi jahon moliya markazlari amaliyotiga mos maxsus rejim o'rnatilmoqda. Bu qoidalar kapital, texnologiya va malakali kadrlar harakatidagi ma'muriy to'siqlarni qisqartiradi.

Boshqaruv tizimi ham o'ziga xos bo'lib, Prezident tasdiqlaydigan kengash oliy organ hisoblanadi, moliyaviy regulyator bozorni nazorat qiladi, Toshkent xalqaro tijorat sudi esa o'z doirasida mustaqil ishlaydi. Umumiy muvofiqlashtirish Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi zimmasida. Qonun markaz organlariga fuqarolik, korporativ, tijorat, moliya, soliq va mehnat sohalarida maxsus hujjat qabul qilish huquqini beradi. Shaffoflik mexanizmi ham institutsional jihatdan mustahkamlangan. Markazning jarima joriy etuvchi yoki mavjud tartibga solish rejimiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim qarorlari qonunga ko'ra kuchga kirishidan avval rasmiy reyestrda e'lon qilinadi. Bu investorlarga qoidalar o'zgarishi haqida oldindan xabardor bo'lish imkonini beradi. Bunday institutsional

tizim xalqaro moliyaviy munosabatning o'ziga xosligini hisobga olgan tartibga solish usuli desak, to'g'ri bo'ladi.

Markaz faoliyatida iqtisodiy jihatdan eng og'ir toshni bosgan norma soliq imtiyozining 2076-yil 1-yanvargacha, ya'ni deyarli ellik yil davomida amal qilishi bo'ldi. Mazkur raqam tasodifiy emas. Infratuzilma, transport va moliyaviy xizmat loyihalarida dastlabki xarajat yuqori, sarmoyaning qoplanish davri esa o'nlab yilga cho'ziladi. Soliq shartining barqarorligi investorga kelgusi pul oqimini aniq hisoblash va moliyalashtirishni uzoq muddatga rejalashtirish imkonini beradi.

Jarayon izchil va tizimli kechsa...

Rasmiy prognozlariga ko'ra, 2030-yilga qadar Toshkent xalqaro moliya markazi orqali iqtisodiyotga qo'shimcha 20-25 milliard dollar investitsiya jalb etilishi, yalpi ichki mahsulotning yillik 1 foizgacha qo'shimcha o'sishi, 15 mingtagacha yuqori malakali ish o'rni yaratilishi va 10 ming mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish kutilmoqda.

Muhim amaliy tafsilot shundaki, markaz abstrakt kelajak emas, aniq muddatga ega — 2027-yil boshidan to'liq faoliyat yuritishi rejalashtirilgan. U aktivlarni boshqarish, kapital bozorlari, islomiy moliya, fintex va oilaviy ofislar (family offices) kabi platforma xizmatlarini taklif etadi, investorlarga korporativ, dividend va kapital o'sish soliqlaridan uzoq muddatli imtiyozlar beriladi.

Markaz faoliyatining haqiqiy samarasi jalb qilingan xususiy kapital hajmi bilan baholanadi. Mazkur jarayon mamlakatdagi umumiy investitsiya faolligi bilan ham uyg'un kechmoqda. Joriy yilda bo'lib o'tgan V Toshkent xalqaro investitsiya forumi yakunlari bo'yicha 166 ta kelishuv asosida 43,1 milliard dollarlik loyihalar e'lon qilingani faollikni aniqroq ko'rsatadi. Bu mablag'lar O'zbekistonning xalqaro investitsiya maydonidagi jozibadorligi izchil o'tib borayotganidan dalolatdir.

Toshkent xalqaro moliya markazining 2027-yildan to'liq ishga tushishi va 2030-yilga qadar 20-25 milliard dollar jalb qilish rejasiga shu nuqtayi nazardan qaralsa, atigi uch-to'rt yillik amaliy faoliyat davrida yuqori ambitsiyali maqsad hisoblanadi. Uning amalda oshishi ichki islohot bilan birga global iqtisodiy konyunktura, xalqaro kapital bozori holati va investor ishonchiga ham bog'liq. Dastlabki bosqichda moliya markazining asosiy yutug'i jalb qilingan mablag' hajmi emas, investor ishonchi, huquqiy institut samaradorligi va xalqaro obro'ning shakllanishi bilan o'lchanadi.

Yana bir muhim jihat, markazning huquqiy modeli O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni bilan institutsional jihatdan uyg'unlashadi. Joriy yil o'rtalariga kelib mamlakat JSTga a'zo 34 davlatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokarani yakunladi. JSTga a'zolik shaffof qoida, prognoz qilinadigan tartibga solish va nizoni hal etishning ishonchli mexanizmini talab qiladi. Xuddi shu tamoyil moliya markazi faoliyatida ham o'z aksini topgan. Mustaqil sud, xalqaro huquqqa asoslangan rejim va xalqaro arbitraj amaliyoti mamlakatning institutsional salohiyatini namoyon etadi.

Kelgusi yillar Toshkent xalqaro moliya markazi uchun hal qiluvchi bosqich bo'ladi. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, har qanday moliya markazining dastlabki uch-besh yilida sud amaliyoti shakllanadi, regulyatorga ishonch mustahkamlanadi va ilk yirik xalqaro bitimlar amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusi bosqichda markaz ishtirokchilari bilan milliy moliya institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda investitsiyalar va ishtirokchilar soni bo'yicha ochiq yillik hisobotlar tizimini joriy qilish ustuvor yo'nalishlar sifatida ko'zga tashlanadi.

Ushbu yo'nalishlar izchil va tizimli kechsa, Toshkent xalqaro moliya markazi investitsiyalarni jalb qilish platformasi bilan birga O'zbekistonda huquqiy va institutsional islohotlarning amaliy modeliga aylanishi turgan gap. Pirovardida markazning haqiqiy muvaffaqiyati qonunning huquqiy maqomi, uning negizida shakllanadigan institutlar, investitsiyalar uchun yaratiladigan ishonchli muhit hamda O'zbekistonning global moliya tizimidagi o'rni bilan belgilanadi.

AHOLI ROZILIGI VA ISHONCHIGA ERISHISH profilaktika inspektorlari faoliyatining muhim tamoyili

Qayd etilganidek, yo'l-patrul, patrul-post va qo'riqlash xizmati xodimlarining xizmat yo'nalishi va hududidan qat'i nazar, aholi murojaatiga tezkor munosabat bildirishi juda muhim. Jinoyatchilikning oldini olishda huquqbuzarlik omillarini barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish hamda xavf guruhiga kiruvchi shaxslar bilan manzilli ishlash eng samarali profilaktikadir.

Bugun mamlakatimizdagi 9000 ga yaqin mahallada 10 mingdan ortiq profilaktika inspektori xizmat qilmoqda. Ahamiyatlisi, soha izchil takomillashtirilib, samaradorlik oshmoqda. Xususan, keyingi yillarda aholi tinch-osoyshta hayot kechirishi uchun huquqiy, tashkiliy mexanizmlar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Eng asosiysi, so'nggi yillarda jamoat xavfsizligi masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mahallaning mavqei mustahkamlandi, profilaktikaning yangi formatlari joriy etildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tashkil etishda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi.



Inson qadri

Endi profilaktika inspektori qonun bilan belgilanadigan vazifalarni bajaradi. Loyihaga ko'ra, profilaktika inspektorining kasbiy faoliyatiga aralashish, unga taalluqli bo'lmagan topshiriqlar va asossiz yuklamalar berish

taqiqlanadi. Huquqlari, sha'ni, qadr-qimmat, ishonchlik obro'si davlat himoyasida bo'ladi. Ushbu qonun bilan alohida kasbiy burchiga sodiqlik qasamyodi qabul qilgan vaqtdan boshlab maqom berilgan hisoblanadi.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasi turini mustaqil tanlaydi. Majburiy profilaktik ko'rsatmalari beradi. Taqdimnoma kiritadi va ijrosini talab qiladi. O'zining profilaktik tadbirlar uslubini ishlab chiqadi

hamda vakolati doirasida tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlariga qo'shimcha vakolatlarni ham berilishi rejalashtirilgan. Xususan, 18 ta modda bo'yicha ma'muriy ogohlantirish huquqi berilmoqda. Bunda ayrim ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy jazo qo'llash vakolati kengaytiriladi. Ayrim moddalar bo'yicha ma'muriy ogohlantirish jazosini qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, profilaktika inspektori zimmasiga ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizimi kodeksiga qat'i'y rioya qilish, huquqbuzarliklar to'g'risida fuqarolarning har qanday shakldagi murojaatlarini qabul qilish va tezkorlik bilan munosabat bildirish, huquqbuzarlik sodir etilgan joyga darhol yetib borish va tekshirish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yoki boshqa turdagi yordam ko'rsatish kabi majburiyatlar yuklatiladi.

Qisqasi, jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlariga yaratilayotgan imkoniyat va berilayotgan vakolatlarni, shubhasiz, mamlakat farovonligi hamda yurtodsharimizning turmush tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Shahlo TURDIQULOVA,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
vitse-prezidenti

Boshlanishi 1-betda

Hozir burilish nuqtasi. Nega?

Bir necha o'n yillar oldin sanoatning rivojlanishi, asosan, xomashyo mavjudligi bilan belgilanardi: mamlakat qancha ko'p neft, gaz yoki mineral resurslarga ega bo'lsa, uning mavqeyi shuncha mustahkam bo'lardi. Bugungi kunda bu model tez sur'atda dolzarbligini yo'qotmoqda. Raqobatbardoshlik qayta ishlangan xomashyo hajmiga tobora kamroq va yuqori qo'shimcha qiymatga ega yangi texnologiyalar, materiallar va mahsulotlar yaratish imkoniyatiga ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda.

Shuni e'tiborga loyiqlik, global kimyo ishlab chiqarishda yetakchilar eng katta zaxiralarga ega mamlakatlar emas. Germaniya deyarli to'liq uglevodород importiga bog'liq. Koreya Respublikasida muhim xomashyo bazasi yo'q. Singapur esa deyarli tabiiy resurslardan mahrum. Shunga qaramay, ular sanoatning global yetakchilari qatorida. Chunki ular har bir tonna xomashyodan sezilarli darajada ko'proq qiymat yaratishni o'rgangan.

Rivojlanish yo'nalishining mantig'i ham o'zgardi. Ilgari investitsiya loyihasi obyekti bitta zavod bo'lgan, bugungi kunda esa butun ishlab chiqarish zanjiri loyihalashtiriladi: resurs bazasi, chuqur qayta ishlashning istiqbolli yo'nalishlari tahlil etiladi, har bir bosqichning iqtisodiyoti hisoblab chiqiladi va shundan keyingina qurilish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Bu yondashuv qiymat zanjirida izchil yuqoriga ko'tarilish imkonini beradi, bu yerda global bozor foydasining asosiy qismi hosil bo'ladi. Bu tendensiya O'zbekiston kimyo sanoati uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi kerak.



Davlat xomashyodan tortib, yakuniy mahsulotgacha bo'lgan yagona texnologik zanjirga birlashadigan, o'zaro bog'liq loyihalarni ichiga olgan yaxlit ilmiy dasturni subsidiya qilishi lozim.



Dolzarb mavzu



O'zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoati yetakchi tarmoqlardan biriga aylana oladimi? Bugungi kunda bu masalaning yechimi ko'proq xomashyo zaxiralari hajmi, investitsiyalar miqyosi yoki barpo etilgan korxonalar soniga emas, balki ilm-fan, sanoat va davlat strategiyasini yangi ishlab chiqarishlar hamda yangi bozorlarni shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimga birlashtirish salohiyatiga bog'liq.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

KO'ZGU

5

2026-yil 22-iyul, 147-son

Ikkinchi o'zgarish ilm-fanni tashkil etishning o'ziga taalluqli. Laboratoriya ilmiy maktablar an'anasi bo'yicha emas, balki tarmoqning aniq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilishi kerak. O'zbekiston Fanlar akademiyasi bu yo'nalishda harakat qilmoqda: eskirgan yo'nalishlar tugatilib, ular o'miga kimyo sanoatining real vazifalariga javob beradigan yangi yo'nalishlar yaratilayapti. "Tarmoq vazifasi uchun laboratoriya" tamoyili umumiy qoidaga aylanishi lozim.

Uchinchi va ehtimol, eng muhim o'zgarish ilm-fanni moliyalashtirish tizimida bo'lishi kerak. Alohida yo'nalishlarni parchalagan holda loyiha asosida moliyalashtirishdan kompleks yondashuvga o'tish zarur. Davlat xomashyodan tortib, yakuniy mahsulotgacha bo'lgan yagona texnologik zanjirga birlashadigan, o'zaro bog'liq loyihalarni ichiga olgan yaxlit ilmiy dasturni subsidiya qilishi lozim.

Har bir bunday dastur nafaqat olimlarni, balki ishlab chiqarish kompaniyalarini ham birlashtirgan konsorsium tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bu yerda tub o'zgarish juda muhim. Ilgari fan, asosan, "Maksam-Chirchiq" yoki "Navoiyazot" kabi yirik davlat korxonalari bilan hamkorlik qilgan bo'lsa, bugungi kunda konsorsiumlar kichik va o'rta biznesni o'z ichiga olishi shart. Ular yirik korxonalarga qaraganda chaqonroq va muhandislik markazlarida yangi texnologiyalar hamda mahsulotlarni tezroq yaratishga, so'ng'ra ularni ishlab chiqarishga darhol joriy etishga imkon beradi. Bunday hamkorliklar foydali bo'lishi uchun ilmiy dastur doirasidagi moliyalashtirish biznesga ham taalluqli bo'lishi kerak. Masalan, ularning loyiha xarajalarini yarmigacha qoplash orqali. Shunda kompaniya nafaqat tashqi mijoz, balki uning natijasidan manfaatdor bo'lgan holda ishlab chiqishda to'laonli ishtirokchiga aylanadi. Nihoyat ularning barchasi doimiy faoliyat yuritadigan fanlararo mexanizmi talab qiladi. Unda ilm-fan, sanoat va davlat birgalikda ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi, jahon tendensiyalarini tahlil qiladi hamda tarmoqni rivojlantirish dasturlarini shakllantiradi. Aynan shu mexanizm ilmiy kimyoni g'oyadan sanoat siyosatining amaliy vositasiga aylantiradi. Shuningdek, u ilm-fan muvaffaqiyati mezonini ham belgilaydi: nafaqat uning poydevori bo'lib qoladigan ilmiy maqolalar va patentlar, balki yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish zanjirlari va eksportbop mahsulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yarimo'tkazgichlar uchun kremniy materiallari ishlab chiqarishda foydalaniladigan modda — monosilan olish texnologiyasi yaratildi. Kremniy karbidi esa bugungi kunda jahon bozorida keskin tanqis bo'lib turibdi. Gap ishini noldan boshlash haqida emas, balki mavjud texnologiyadan tortib, yakuniy yuqori texnologiyali mahsulotgacha bo'lgan zanjirni to'liq shakllantirish haqida ketmoqda. Natijada ilmiy vazifaning o'zi ham o'zgaradi: bu yerda alohida bir texnologiya emas, balki mahalliy xomashyodan tortib, yuqori texnologiyali materiallarga bo'lgan chuqur qayta ishlashning to'liq zanjiri muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalash obyekti endi alohida texnologiya yoki muayyan ishlab chiqarish emas, balki kelajakdagi butun bir tarmoqqa aylanadi.

Qanday o'zgarishlar zarur?

Bundan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, ilm-fan tarmoqqa strategik vazifalarni shakllantirish bosqichidan olib chiqilishi kerak, rejalar tashkil obyekti esa alohida korxona emas, balki qiymat yaratishning to'liq zanjiri bo'lishi lozim. Biroq to'g'ri yondashuvning o'zi kifoya qilmaydi — uni amalga oshirish uchun ilm-fanni tashkil etish, moliyalashtirish hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyalash tizimida aniq o'zgarishlar qilish talab etiladi.

Avvalo, laboratoriya va korxona o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish kerak. Dunyo bo'ylab muhandislik markazlari va tajriba zavodlari bu muammoni hal qilmoqda, ilmiy natijalarni sanoatga joriy etmoqda. Bu tafovutning qay darajada haqiqiy ekani quyidagi misolda ko'rsatilgan: olimlarimiz allaqachon uglerod nanotubalarini sintez qilish uchun mahalliy texnologiyaga ega. Ushbu materialning global bozori 2030-yilga kelib 8 milliard dollarga yetadi. Ammo uni mintaqadagi mamlakatlarda ishlab chiqarish hali yo'lga qo'yilmagan. Kelasi yil bish shunday texnologiyani taqdim etishga tayyormiz. Biroq aynan ishlanmani ishlab chiqarishga o'tkazish bosqichida bugungi kunda yetishmayotgan zarur muhandislik ko'prigi kerak bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida kimyo sanoati yetakchi tarmoqlardan biriga aylana oladimi? Bugungi kunda bu masalaning yechimi ko'proq xomashyo zaxiralari hajmi, investitsiyalar miqyosi yoki barpo etilgan korxonalar soniga emas, balki ilm-fan, sanoat va davlat strategiyasini yangi ishlab chiqarishlar hamda yangi bozorlarni shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimga birlashtirish salohiyatiga bog'liq.

Davlatimiz rahbarining ilmiy kimyoni rivojlantirish bo'yicha vazifasi aynan shu g'oyaga asoslanadi. Bu nafaqat ilm-fanni qo'llab-quvvatlash yoki ayrim ilmiy ishlanmalarni joriy qilish, balki tarmoq taraqqiyotining multaloq yangi modelini shakllantirishni anglatadi. Ushbu modelda strategik qarorlar ilmiy tahlillarga tayangan holda qabul qilinadi, tadqiqotlar esa yangi ishlab chiqarish zanjirlari va mamlakatning raqobatbardosh ustunliklarini yaratishga yo'naltiriladi.

Ilm-fan innovatsion jarayonning so'nggi bosqichi emas, uning asosiy boshlanish nuqtasi bo'lishi lozim. Ana shunda "ilmiy kimyo" tushunchasi oddiy ilmiy fan nomi doirasidan chiqib, sanoat rivojlanishining mustaqil falsafasiga aylanadi. Bu yo'nalish O'zbekiston kimyo sanoatini iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirishga xizmat qilishi mumkin.

KASALIKLARNI DAVOLASH imkoniyatlari kengaymoqda



Salomatlik – el boyligi

Aholi salomatligini muhofaza qilish hamda sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, eng olis hududlarga bo'lgan yo'nalishda zarur shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda mazkur sohani isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida tibbiyot muassasalari yangi zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanmoqda. Shuningdek, har bir bemor kasalliklar kesimida skrining tekshiruvlardan o'tkazilib, xastaliklarni erta aniqlash va davolash choralari ko'rilyapti.

Prezidentimizning 2026-yil 20-yanvardagi "O'tkir yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori ham bu borada yana bir muhim qadam bo'ldi. Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham bu turdagi kasalliklar ko'rsatkichi tobora oshayotir, hatto unga chalinish xavfi yasharib bormoqda. Shuni inobatga olgan holda, qarorda aholi o'rtasida o'tkir yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklarni barvaqt aniqlash, ularga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni yangi bosqichga olib chiqish orqali erta o'lim va nogironlik holatlarini kamaytirish, bemorlarni sog'lomlashtirish hamda reabilitatsiya qilish tizimini yaratish, shuningdek, aholiga kardiologik va nevrologik yordam ko'rsatishni takomillashtirish maqsad qilingan.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazi Navoiy filialida angiografiya hamda yurak-qon tomir jarrohlik bo'limi tashkil etildi. Bo'limning ochilgani yurak va o'tkir koronar sindrom bilan og'rikan bemorlarda shoshilinch jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish imkonini beradi. Yurak sohasida kuchli og'riq bilan kelgan bemorda angiografiya va bitgan yurak-qon tomirlarini stentlash amaliyoti o'tkazilsa, 3-4 kundan so'ng bemalol uyiga qaytishi mumkin. Albatta, bemorlar yashash joyida kardiolog nazoratida bo'lishi, dori-darmonlarni o'z vaqtida qabul qilishi kerak. Shuning uchun bemorlar har oy yoki uch oyda markazda ko'rikdan o'tib, shifokorlar nazoratida bo'ladi.



— Bugun viloyatda istiqomat qilayotgan 1 million 109 ming kishiga 212 ta davolash-profilaktika muassasasi tibbiy xizmat ko'rsatib keladi, — deydi Navoiy viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Nurali Safoyev. — Viloyatdagi 40 va undan katta yoshdagi 338,9 ming fuqaroda yurak-qon tomir va qandli diabet kasalligini aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlari o'tkazildi. 20 mingga yaqini ambulator sharoitda, 4091 nafari tuman, 569 nafari viloyat hamda 15 nafari respublika tibbiyot markazlarida sog'lomlashtirildi. Shuningdek, skrining natijasida qandli diabet kasalligining xavf omillari aniqlanib, ambulatoriya sharoitida

11 ming 125, tuman markazida 2101, viloyat tibbiyot muassasalarida 877 va respublika tibbiyot markazlarida 16 bemor davolandi. Bu jarayonda markazlashgan elektron reyestr samarali yo'lga qo'yilgani bemorlar va shifokorlar uchun samara beraypti.

Hozir Xatirchi, Qiziltepa tumanlari hamda Zarafshon shahrida politrauma markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda eng zamonaviy diagnostika apparatlari bilan ta'minlangan. Bu ham aholini yashash hududida to'liq tekshiruvlardan o'tkazish, aniq tashxis qo'yish va samarali davolash, kerak bo'lsa, amaliyotlarni ham o'tkazish imkonini beradi.

Filialda shifokorlar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, bemorlarga yanada qulaylik yaratish, kasalliklarni samarali davolash, sog'lom hayotga qisqa muddatda qaytarish uchun ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanmoqda.

Navoiy viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazida ham o'tkir yurak-qon tomir va serebrovaskulyar kasalliklarni davolash, murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish uchun zarur shart-sharoit mavjud. Muassasa yildan yilga zamonaviy apparatlar bilan boyimoqda. Bu esa bemorlarga ham vaqt, ham mablag' tejab, darddan tezroq forig' bo'lish imkoniyatini beradi.

— Hozir yurak-qon tomir kasalliklariga chalinish xavfi yildan yilga ko'payib boryapti, — deydi kardiolog-aritmolog shifokor Doston Esonov. — Avvallari bunday kasalliklar asosan yoshi katta bemorlarda, xususan, 55-70 yoshlilarda uchragan bo'lsa, hozir yasharib, hatto 20-30 yoshlilar orasida ham qayd etilmoqda. Aholining sog'lom turmush tarziga rioya qilmasligi, noto'g'ri ovqatlanishi, vazni ortiqchaligi, o'z vaqtida shifokor ko'rigidan o'tmasligi natijasida insult, infarkt kabi xavfli kasalliklar yuzaga kelyapti. Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazimizda turli xil yurak-qon tomir kasalliklarini murakkab jarrohlik amaliyoti orqali davolash imkoniyati mavjud. Zamonaviy tibbiy uskunalar tufayli amaliyotlarimiz muvaffaqiyatli o'tmoqda.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ko'lami yildan yilga kengayib borayotir. Ba'zi tekshiruvlar, yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari viloyat va tumanlarning o'zida amalga oshirilyapti. Xususan, viloyatda joriy yil shu kunga qadar tug'ma yurak nuqsoni ko'lgan, stentlash, endoprotezlash, laparoskopik, buyrak va jigar transplantatsiyasi, ko'z kasalliklari va boshqa holatlarda 2000 ga yaqin bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Ularning 440 tasi viloyat muassasasida, 1544 tasi esa shahar, tuman tibbiyot birlashmalarida bajarildi.

— Joriy yil boshidan buyon Navoiy viloyati

ko'p tarmoqli tibbiyot markazida 260 dan ortiq yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyoti o'tkazildi, — deydi Navoiy viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh jarrohi O'tkir Xushvagtov. — Ushbu amaliyotlar orasida o'ta murakkab bo'lgan buyrak ko'chirish va yurak transplantatsiyasi ham bor. 2024-yilda respublikada jigar transplantatsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan oltinchi viloyat bo'ldi. Har oy Navoiy viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi mutaxassislari tuman darajasiga tushib, o'sha yerda yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyoti o'tkazib, tibbiy yordam ko'rsatib kelmoqda. Markazimizda hozir deyarli barcha diagnostika uskunasi mavjud. Yaqinda xalqaro Kuvayt fondi ko'magida yana LOR kombayn, endoskopik uskunalar, laparoskop, litotripter, UTT apparatlari olib kelindi. Hozir markazimizda Navoiy davlat universiteti tibbiyot fakulteti kafedras ochilgan, 20 dan ortiq shifokorimiz ilmiy tadqiqot o'tkazmoqda.

Har qanday tibbiy xizmat uchun muassasada zarur sharoit bo'lishi shart. Ayniqsa, tajribali mutaxassislarga ehtiyoj ortib boradi. Bu borada viloyatdagi tibbiyot muassasalarining 40 dan ziyod mutaxassisi xorijiy tibbiyot va ilmiy muassasalarda malaka oshirib qaytdi. Bundan tashqari, viloyat markazidan olis shahar va tumanlarda ham aholiga tibbiyotni yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda o'tgan yili hududlardagi tibbiyot muassasalarida 61,8 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Eng chekka qishloqlarda yangi poliklinikalar qurilib, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Moddiy-texnik baza mustahkamlandi va ma'an eskirgan binolar qayta ta'mirlandi.

Har sohada ko'zga tashlanayotgan inson qadri va manfaat yo'lidagi islohotlar tibbiyot tizimida ham jadal bajarilmoqda. Pirovardida aholi salomatligini asrash va tiklash uchun imkoniyatlar kengaymoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Oramizdagi odamlar

SAODAT OPANING KASHTASI DUNYO BOZORIDA

— Buncha chiroyli bo'lmasa? Rangin gullari juda bejirim solingan...
— Bilishimcha, qo'l mehnati. Bu aylana tarzida tikilgani bosh kiyim bo'lsa kerak. Bir oz oldin erkaklar kiyib yurganini ko'rgandim.
— Mana bunisi yanada chiroyli ekan. Qiziq, buni qo'lda tikishganmikan?
— Ayollar sumkachasining ajoyibligini...
— Sovg'a sifatida olsak bo'larkan...
Sotuvchi sayyoh ingliz ayollarining o'zaro suhbatini jimgina tinglab turdi. Keyin ularning qiziqishi ortayotganini ko'rib so'z qotdi.
— Marhamat, mehmonlar. Bu milliy hunarmandligimiz mahsuloti, — dedi u.



Sayyohlar biroz jim qoldi. Bir-biriga ma'noli qaradilar. Ularni sotuvchi ingliz tilida bemalol gaplasha olayotgani yanada hayratlantirgandi. Buni sezgan opa kashtachilik tarixi haqida so'zlay ketdi. Diqqat bilan eshitgan mehmonlar shuncha narsani qanday qilib qo'lda tikish mumkinligiga qiziqdi. Saodat opa oldinroq boshlab qo'yg'an do'ppini qo'lga olib, uni sayyohlar ko'z oldida tikib ko'rsata boshladi. Mehmonlar hunarmandning harakatini suratga olishga intildilar. Turli savollar berib, kerakli javob olganidan mamnun bo'lardi. Sotuvchi opaning qo'llari esa bexato harakat bilan tikishda davom etib, matoga ajoyib gul qo'ndirardi.

Sayyoh ayollardan biri tikib ko'rmoqchi bo'ldi. Eplay olmadi. Hamrohi esa unga bu oson emasligini uqtirdi. Buning uchun aynan shu maktabda o'qish kerakligini, kursni tugatib, diplom olsagina mohir kashtachi bo'lishini ta'kidladi. Shundan so'ng esdalik uchun ikkita chiroyli buyumdan sotib olib, xayrlashishdi.

Chala tikilgan do'ppiga termilgancha Saodat opa xayolga berildi. Qiziq, kashtachilikni o'rganish uchun o'qish kerakmikan? Kursni tugatib, diplom olish zarurmi? Yoshi oltmishga yaqinlashyaptiki, bu haqda biror marta o'ylab ko'rman ekan. O'zi bu hunarni qachon o'rgangandi? Yoshlik damlarini esladi.

...O'shanda endigina olti yoshga qadam qo'ygan qizaloq edi. Qish izg'irida dalaga chiqishning imkoni yo'q. Atrofni oppoq qor qoplagan. Derazadan tashqariga termilgancha qish manzarasiga mahliyo bo'lib turgandi. Bir payt kimdir sekin qo'shiq xirgoyi qila boshladi. Qizcha ovoz qaydan kelayotganiga diqqat bilan quloq tutdi.

Bu ovoz narigi xonadan kelayotgandi. Shoshgancha o'sha yerga kirdi. Odatga ko'ra momosi yumush bilan band. Qo'lida esa kattagina og'mato. Yarmiga qizil, yashil, sariq kabi turli rangdagi iplardan iborat gullar tikib chiqilgan. Momosining qo'shiq'i esa juda horg'in. O'shanda balki ko'ziga yosh olib qo'shiq aytgandir, ovozi bir oz bo'g'iqlik chiqayotgandek edi. Qo'llari harakatlardan to'xtamadi. Sekin uning yoniga o'tirdi. Matoga diqqat bilan qarab, nima ekanini anglashga urindi. Momosiga xalaqit qilmaslik uchun savol bermadi.



Har safar uft torganida keksha ayolning yelkalari bir ko'tarilib tushar, katta ko'zoynagi xiralashib qolgandek ko'rinardi. Kim bilsin, momo yoshlikda ko'rgan-kechirgan og'ir kunlarini yodga olganmikan?
Bir payt onaxon nabirasining unga termilib o'tirganini ilg'adi. Qo'shiqini to'xtatib, yaqiniga imladi va qo'lidagi kashtaning nima ekanini tushuntira boshladi. Bu momolardan meros hunarligini, har bir qiz buni yaxshi bilishi shartligini uqtirdi.
Saodat momosining so'zlari mag'zini to'liq

chaqolmagan bo'lsa-da, kashtachilik yaxshi ish ekanini angladi. Momosining qo'lidan ignani olib, tikishga urindi. Ilk harakati yomon chiqmadi. Momosi nabirasini uzoq duo qildi.
Shundan qizaloqning milliy hunarmandlikka mehri tushdi. Boshida unchalik o'xshamagan esa-da, beshinchi-oltinchi sinfda o'qiydigan paytlari binoyidek uddalaydigan bo'ldi.
Hovlisi Shahrisabzda Qqsaryo yaqinida bo'lgani bois, momosi tikkan kashtalarni har safar o'sha yerga kelgan mehmonlarga sotib kelardi. Keyinchalik o'zi tayyorlagan

turli buyumlarni ham olib boradigan bo'ldi. Lekin ko'hna Keshga kelgan mehmonlarning aksariyati inglizcha so'zlashar, Saodat bu tilni bilmasdi. U paytlari maktabida ingliz tili o'tilmadi. Tirishqoqligi sabab o'zi mustaqil o'rgana boshladi. Dastlab xorijliklar bilan o'z-o'zlashadigan bo'ldi. Asta-sekin do'ppi va kashtalar narxini tushuntira olishga o'tdi. Lekin keyinchalik Oqsaryo majmuasi atrofida savdo qilishga ruxsat bermay qo'yishdi...

Saodat Nizomova voyaga yetib, turmushga chiqdi. Ikki qiz, bir o'g'il farzandni dunyoga keltirdi. Vaqt o'tib, qizlariga kashtachilikni o'rgata boshladi.

— 2020-yil edi. Koronavirus boshlanib, hovlidan dalaga chiqolmay qoldik. Hammamiz uyda. Bir ish bajarib bo'lmaydi. Yoshlikda o'rgangan hunarimni davom ettirish fikri tug'ildi, — deydi Saodat opa. —
Qizlarimni yonimga olib, kashta, do'ppi kabi narsalar tikishni boshladim. Bir kun qarasam, anchagina tayyorlab qo'yibmiz. Endi sotuvni yo'lga qo'yish kerak edi. Ammo rasmiy hujjatga elga emasmim. Mutaxassislar bilan maslahatlashgandim, hunarmandlar uchun qonun imtiyozlar berilgani haqida aytib qoldi. Kerakli hujjatlarni to'plab, rasmiy ro'yxatdan o'tdim. Shundan so'ng Oqsaryo majmuasidan joy olib, ishini boshlab yubordim. Qizlarim yordamlashib, tez orada ishini yo'lga qo'ydik. Sifatli buyumlar tikib, sotib boshladim. Shahrisabzga keladigan xorijlik sayyohlar bilan yaxshi suhbatda bo'lishga intildim. Ularga yurtimizning jozibadorligi haqida gapirib beraman.

Hunarmandlik tarixi haqida ma'lumot berishga urinaman. Xullas, savdomiz yaxshilaniib, ko'proq mahsulot tayyorlaydigan bo'ldik. Buning uchun bizga qo'shimcha ishchi kuchi kerak edi. Mahallamizdan to'rt xotin-qizni ishga oldik. Asta-sekin tarmog'imizni kengaytirdik. Keyinchalik kasanachilikni yo'lga qo'ydim.

Saodat opa tajribasi oshib, qisqa fursatda yetakchi hunarmandlar qatoridan joy oldi. Keyinchalik doimiy ravishda respublikamizning turli hududlarida o'tkaziladigan yarmarkalarda o'zi tayyorlagan milliy mahsulotlar ko'rgazmasini tashkil etadigan bo'ldi. Turli tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni ham qo'lga kiritdi.

Jumladan, 2023-yil Qo'qon shahrida o'tkazilgan II Xalqaro hunarmandlik festivalida faol ishtiroki uchun xalqaro sertifikat bilan taqdirlandi. 2019-2024-yillar Moskva shahrida o'tkazilgan xalqaro tanlovlarda, BAAning Abu-Dabi shahrida Xalqaro hunarmandlik mahsulotlari festivalida ishtirok etdi.

2025-yilda Malayziya, Ozarbayjon, Turkiya, Eron, Yaponiyada tashkil etilgan xalqaro ko'rgazmalarda faol hunarmandlar qatorida o'z mahsulotlari namoyishini o'tkazdi. Tayyorlagan mahsulotlari mahalliy bozorlarda xaridorgirli bilan nom chiqardi, chet ellik sayyohlar o'rtaida ham katta qiziqish uyg'otib, qator sayyohlik firmalari bilan hamkorlik qila boshladi.

— Har safar xorijga borsam, hamkorlik shartnomasi tuzib kelishga intilaman, — deydi Saodat opa. — Shu paytga qadar milliy hunarmandlik mahsulotlarimizni Germaniyaga eksport qilib kelayotgandik. Joriy yildan boshlab Yaponiyada sotishni yo'lga qo'yamiz. Bundan tashqari, indoneziyalik ishbirolar ham qiziqish bildirgan. Ular bilan ham yaqinda shartnoma imzoladik. Tez orada ularga ham mahsulotlarimizni jo'nata boshlaymiz.

Ayni paytda hunarmand opa Shahrisabzdan tashqari Samarqand shahrida ham faoliyat yuritib keladi. Xususan, mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy davlat rahbarlari, oliy martabali mehmonlar doimiy ravishda Samarqand xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" tarixiy-etnografik majmuasida bo'lib, Saodat Nizomovaning boy madaniy merosimiz va amaliy san'atimizni aks ettiruvchi hunarmandlik faoliyati bilan tanishib kelmoqda.

Yana bir gap. Opa ishsiz aholi qatlamini kasanachilik, tadbirkorlik hamda kasht-hunarga jalb qilishda ham faol. Bugungi kunga qadar Qashqadaryoda 3000 dan ortiq hunarmand shogird tayyorlagan. Kitob va Shahrisabz tumanlaridagi olis tog'li hududlarda istiqomat qilayotgan xotin-qizlar bandligini ta'minlab, oyiga o'rtacha 2-3 million so'm daromad topishiga imkon yaratgan.

Hozir u yoniga loyiha ustida ishlamoqda. Bu amalga oshgach, qo'shimcha ish o'rnlari ochiladi. Qizi ham bugungi kunda "Dilnoza kashtachi" korporatsiyasini ochib, kasanachilik rivojlanishiga hissa qo'shib kelyapti.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

FAYZLI XONADON JOZIBASI

XORIJLIKLARNI MAFTUN ETMOQDA



Turizm

Buxoro viloyati Vobkent tumani Nayman qishlog'idagi Changaron mahallasida bir oila yashaydi. Nafaqaga chiqqanidan buyon ancha yillar o'tgan bo'lsa-da, hamon qarilikni tan olmay, ezgu ishlar bilan band oila boshlig'i Rustam Rajabov bir vaqtlar feldsher, oila sohibasi Qursiya ona esa muallima edi. Qishloqdoshlari bu ikki nuroniy haqida og'zidan bol tomib gapiradi.



Zamira RO'ZIYEVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Do'stlik" ordeni sohibi

Ularni nafaqat mahalla, tuman yoki viloyatda, balki ko'pgina xorijiy mamlakatlarda ham tanishadi. Bu rost gap. 52 yildan buyon birga yashab, ikki qiz, ikki o'g'ilni voyaga yetkazgan, elga qo'shgan Rustam ota va Qursiya ona keyingi o'n yilda shunaqa taniqli bo'lib ketdi...

O'n yil avval to'ng'ich o'g'li Dostonbek Rajabov institutni tamomlab, Buxorodagi mehmonxonada menejer bo'lib ishlay boshladi. Keyin ukasi Behzodbek ham chet tillar institutini tugatib, ingliz, fransuz, tojik, rus tillari bo'yicha tarjimon bo'lib, akasining yoniga keldi. So'ngra Dostonbek AQSH va Turkiyaga malaka oshirish safarlari davomida ingliz va turk tillarini mukammal o'rgandi.

U faqat til o'rganmadi, o'sha yurtlardagi odamlarning yashash, kiyinish, ovqatlanish odatlariga alohida e'tibor berdi. Sababi tafakkuri va ko'ziga o'zimizning o'zbekcha yashash tarzimiz, urf-odatlarimiz, kiyimlarimiz, noz-ne'matlarimiz dunyodagi eng zo'ri bo'lib ko'rinaverdi. Faxr, g'urur tuydi qalbida. Dunyo ahlining bundan boxabar bo'lishini, bizga havas qilishini istadi. Qalbidagi bu faxru g'urumi ota-onasiga, ukasiga aytib berarkan, ajoyib bir rejani o'rtaga tashladi.

— Buxoroga kelgan sayyohlar, tabiiyki, Vobkentga ham tashrif buyuradi, — dedi u hayajonlanib. — Ularga faqat tarixiy obidalarimizningina emas, milliy taomlarimizni, libos va urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni ham ko'rsatsak deymen.



— Yaqinda Zahiriddin Muhammad Boburning "Bobumoma" asari tabdilini o'qidim, — gapga qo'shildi onasi. — Necha ming yillik tariximiz bor. Ho'l novdani suqib qo'ysang, uch kunda barg chiqaradigan noyob tuprog'imiz, shu tuprog' bilan tillasha oladigan mehnatkash xalqimiz, zo'r qadriyatlarimiz bor, ular bilan dunyoni tanishtirsaq qaniydi.

Xullas, aka-ukaning turizm sohasidagi izlanishlari, o'ziga xos faoliyati boshlanib ketdi. Ko'pni ko'rgan ota-onasi ularning yonida turdi. Tuman turizm idorasidagilarga ham bu tashabbus ma'qul keldi. Zero, har bir xorijlik sayyoh o'z sayohati davomida mamlakatimiz haqida mukammal tasavvurga

ega bo'lgisi keladi. Shuningdek, O'zbekiston va o'zbek xalqi, oilasi, taomlari, onalari, kelinlari, mehmondo'st fazilatlarini haqida bilishga qiziqadi.

Shuni o'ylagan Dostonbek va Behzodbek maslahatlashib, bu tanishuvlarni o'z oilasida o'tkazishga ahd qildi. Axir uning onasi mehmonni xush ko'radigan, lovilab qizigan tandirda qizarib pishadigan patir nonlar yopib, guruchi o'malab ketguday quling o'rgilsin palov damlaydigan pazanda-ku. Kelinlariga, qizlariga ham uning bu fazilatlarini yuqqa, albatta. Hovlidagi o'zbekcha istara, fayz, xonadon sohiblarining og'zallikka oshnoligi qaysi sayyohni qiziqitmaydi?! Tomorqa to'la

mevali daraxt-u yegulik ekinlar, sal naridagi qo'rada boqilayotgan qo'ylar, mo'jazzina bo'lsa-da, o'zlari qurgan issiqxonadagi limonu mandarin, banan, xurmo meva tugib turibdi. Bularni o'zbekning o'z qo'li bilan yaratgan jannati desa ham bo'laveradi.

Hech qancha o'tmay, tashabbus va niyatlar amalga osha boshladi. Vobkentga kelgan xorijlik sayyohlar Rajabovlar oilasiga albatta tashrif buyuradigan bo'ldi. Yil sayin tajribalari oshib, kattagina bir xonani muzeyga aylantirishdi. O'zbegimning qadimiy osori atiqalari, milliy liboslari, ayol-qizlarimizning taqinchoqlari, oftoba, chilopchinu sholi saqlagich bordorlar, yog' asragich sopol xumlar qo'yildi. Bug'doy, paxta yetishtirishdagi, ipak qurti boqishdagi eksponatlar bilan ham jihozlandi bu muzey.

Yuqorida aytganimiz, mo'jazzina issiqxonada mo'jizaday bo'lib yetilgan limon, mandarin, banan, xurmo, tomorqa girdini o'rab turgan 20 tup anor, 15 tup tok, olma, shaftoli, nok, olcha va gilos daraxtlari ham to'kinlik, ham og'zallik bo'lib sayyohlarni hayratga sola boshladi.

Dostonbekning Germaniyaga sayyoh bo'lib borib kelgan do'sti Berlin shahridagi yirik yarmarkadagi ko'rgazmalardan birida Qursiya onaning tandirdan non uzayotgan katta hajmdagi surati tomoshabinlarni hayratga solayotgani haqida gap topib keldi. Iyishonishlari uchun ko'rgazmadagi katta pannoni suratga ham olib qaytganini chi.

Turkiya davlat televideniyesi Qursiya onaning kelinlari bilan pazandalik mahoratlari haqida alohida ko'rsatuv tayyorlab, namoyish etgani ham o'zbekcha urf-odatlar, qadriyatlar tobora mashhur bo'lib borayotganidan nishona, albatta.

Qursiya onaning pazandaligi, oqilaligi, farzandlar tarbiyasidagi zukkoligi har bir xorijlik mehmonning havasini keltiradi. Onaxonning sayyohlar kelishiga o'zbekona kamzulgiga "Mo'tabar ayol", "Ibratli oila bekasi" ko'krak nishonlarini taqib olishi esa yurtimizda mehnat kishilarining davlatimiz tomonida e'zozlanib, rag'batlantirilishi

haqida xabar beradi. Kelinlari Nargizaxon va Gulzodaxon, qizlari Feruzaxon hamda Madinaxonning chaqqonu ishchanligi, odobi, mehmondo'stligidan o'ta-onaga tarbiyasini olgani, bizda oilalar hamjihat, bir-biriga ustozu shogird bo'lishi, oila muqaddasligi haqida tasavvur uyg'otadi.

"Nuroni" jamg'armasi Vobkent tumani bo'limi faollari va rahbari uchrashev hamda tadbirlarda Rajabovlar oilasining elga ibrat ekani haqida faxrlanib gapiradi. Bir gal Vobkent tumani nuroniyarlari haqida "Mahalla" telekanalidan berilgan ko'rsatuv shu hovlidan uzatilgani ham bejiz emas.

— Doimiy keldi-ketdilar charchatib qo'ymaydimi? — so'radim onaxonndan.

— Nega charchatadi, shoira Tursunoy Sodiqovning bir she'rida aytilgan "Uch kun mehmon kelmasa, o'zbegimga uyatidir" degan so'zlar hammamizning fe'limizga singgan, — deydi Qursiya ona. — Bu fe'l menga rahmatli qaynonamdan o'tgan bo'lsa, men qizlarim va kelinlarimga o'rgatganman. Sarishta hovlimiz, hosili mo'l mevali daraxtlarimiz, issiqxonadagi sitrus mevalarimiz kelgan mehmonni hayratga solsa, ular o'zbekcha osh-u mantidan, somsa-yu chuchvaradan tanovul qilib xursand bo'lsa, o'zimiz ham yayrab ketamiz. Xonadonimizga baraka yog'ilganini sezib turamiz.

Xonadonning barakasi haqida gap ketsa, bu oilaning har yili qishloq'idagi kam ta'minlangan oilalarga go'sht-u sabzavot, turfa mevalar tarqatishi ham o'zbekcha qadriyatlarimizning eng go'zali ekanini aytib o'tish joiz.

Zotan, yurtimizda mana shunday fayzli, ibratli va dunyoga o'zbekning asl qiyofasini ko'rsatib turgan tabarruk xonadonlar, piri komil nuroniy ota-onalar, til bilgich, ish bilgich tashabbuskor yoshlar bor ekan, yurtimizning barakasi, o'zbek xonadonining joziyasi aslo yo'qolmaydi. Buni o'n yildan buyon Buxoroning Vobkentidan tuz totib, mehmondo'stlikdan, o'zida paydo bo'lgan toza tasavvurlardan shodlanib ketayotgan minglab xorijlik sayyohlar ham tasdiqlasa kerak...

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cair: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qo‘g‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etiladi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Akbar Qarshiyeu
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy